

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TALIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI  
SANOAT TARMOQLARINI BOSHQARISH FAKULTETI**

**SANOAT IQTISODIYOTI VA MENEJMENTI  
FANIDAN**

**Amaliy mashg'ulotlar o'tkazish bo'yicha masalalar to'plami.**

**Toshkent 2015**

Tuzuvchi: Alimxodjaev S.R. Sanoatda Iqtisodiyot va menejment fanidan masalalar to‘plami.- Toshkent: ToshDTU,2015.

Iqtisodiyot va menejment kursi bo‘yicha tayyorlangan mazkur uslubiy ko‘rsatmalarda amaliy mashg‘ulotlar mavzulari tarmoq korxonalarini amaliyotida qo‘llaniladigan asosiy va aylanma fondlardan foydalanish ko‘rsatkichlari, tannarxni shakllanishi, foyda va rentabellikni aniqlash kabi korxona iqtisodiyotining muhim masalalari keltirilgan. Shuningdek, qo‘llanmada korxona ishlab chiqarishini rejalashtirish va boshqarish bo‘yicha misol va masalalar keltirilgan hamda ularni yechimllari berilgan.

Mazkur masalalar to‘plami oliv o‘quv yurtlarini geologiya, konchilik ishi va neft gaz sohalarida o‘qiyotgan barcha bakalavriat talim yo‘nalishlari talabalariga mo‘ljallangan.

Taqrizchilar:

Isoqov M.TDIU, “Sanoat iqtisodiyoti”  
kafedrasini dotsenti, i.f.n.

Isxaqov B.A.ToshDTU “Iqtisodiyot va  
marketing” kafedrasining dotsenti, i.f.n.

© Toshkent davlat texnika universiteti 2015

## Kirish

Respublikamizda ijtimoiy – iqtisodiy o‘zgarishlar surati tobora avj olmoqda. O‘zbekiston jamiyatni isloh qilishning o‘zi tanlagan yo‘li tamoyillarini amalga oshira borib, keyingi yillarda ko‘p tarmoqli iqtisodiyot asoslarini,davlat tomonidan boshqarilishining yangi tizimini, bozor islohatlarining boshqa vazifalarini hal qilish borasida katta yutuqlarga erishdi. Bozor islohatlarining huquqiy negizi tobora mustahkamlanib bormoqda. Bunday sharoit iqtisodiyot va menejment fani oldiga yangidan – yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Korxonalar barqarorligi ko‘p jihatdan iqtisodiy faoliyatning holatiga, yani ishlab chiqarishni rejallashtirish va tashkil etish va boshqarish usullari, mehnatni tashkillashtirish va unga haq to‘lash me’yorlariga rioya qilish, bozor talablariga o‘z vaqtida javob berish, texnik va investitsion qaror qabul qilishda yanglishmaslik va hokazolarga bog‘liq bo‘ladi. Ishlab chiqarishda bu masalalarni hal etish nechog‘lik to‘g‘ri va samarali amalga oshirilishiga korxona va uning har bir xodimi hamda butun davlatning ravnaqi va gullab – yashnashi ham bog‘liq bo‘ladi.

Xozirgi bozor iqtisodiyoti sharoiti mamlakat iqtisodiyotining har bir sohasi mutaxassisidan o‘zi ishlayotgan sohaning iqtisodiyoti, uni tashkil etish va boshqarish korxonalarda raqobatbardosh, import o‘rnini bosa oladigan va eksportga yo‘naltirilgan sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish, hamda korxonalar samaradorligi oshirish masalalari bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lishi talab qiladi.Bunday bilimlarni”Iqtisodiyot va menejment” kursi va boshqa fanlar beradi.

Amaliy mashg‘ulotlar mavzulari tarmoqlar korxonalari iqtisodiyoti va menejmenti amaliyotida qo‘llaniladigan masalalarni yechimiga qaratilgan. Bu bilimlar talabalarning o‘qish davrida fan bo‘yicha olgan nazariy bilimlarni mustahkamlab, ularning kurs va bitiruv ishlarinini bajarishda, shuningdek ularni ishlab chiqarishdagi amaliy faoliyatlarning, ayniqsa, dastlabki yillarida zarur bo‘ladi.

“Iqtisodiyot va menejment” kursing amaliyot mashg‘ulotlarini uslubiy ko‘rsatmalari oliy o‘quv yurtlarining geologiya, konchilik ishi, neft-gaz yo‘nalishlarining o‘quv rejasi asosida tuzilgan.

Uslubiy ko‘rsatma korxonalarni asosiy va aylanma fondlardan foydalanish, tannarxning shakllanishi, foyda va rentabellik kabi iqtisodiyotining muhim masalalarini hamda menejerlarni shaxsiy va

ishbilarmonlik sifatlarini baholash bo'yicha turli vaziyatlarni qamrab olgan.

## **1. KONCHILIK SANOATINING ASOSIY ISHLAB CHIQARISH FONDLARI**

### **1.1 .Asosiy ishlab chiqarish fondlarining strukturasi, hisobga olish va baholash**

Asosiy fondlarining saqlanish va ulardan foydalanish samaradorligi darajasini nazorat qilish uchun konchilik korxonalariga tegishli barcha asosiy fondlar, pul va natural hisobga olish , asosan uchastkalar , sexlar va korxonalar bo'yicha ishlab chiqarish dasturini tuzish, ularning ish natijalarini taxlil qilish uchun zarurdir. Asosiy fondlarning pul shakli asosiy fondlar umumiyligini aniqlash, amortizatsiya ajratmalar miqdori va qayta tiklash uchun kerakli mablaglarni aniqlash uchun zarur.

Konchilik koxonalarida asosiy fondlar:

- a) dastlabki qiymat bo'yicha;
- b) qayta qoldiq qiymati bo'yicha hisobga olish va baholash usullari keng tarqalgandir.

Dastlabki qiymat bo'yicha asosiy fondlarni baholash va hisobga olish sotib olingan mehnat vositalarini yoki qurilishning mablag' sarflangan davrdagi bahoda aniqlangan qiymatini ko'rsatadi.

Fondlar dastlabki qiymati quyidagi ifoda bo'yicha aniqlanadi.

$$F_d = X_o + X_t + X_q$$

Bu yerda:

$X_o$ -uskunalarning sotib olingan bahosi,

$X_t$ -transport xarajati,

$X_q$ -qurilish va montaj ishlarining qiymati.

Asosiy fondlarning dastlabki qiymati ba'zi kamchiliklarga ega.

Mashina va uskunalar narxi, shuningdek, qurilish qiymatlari vaqt o'tishi bilan o'zgarishi sababli asosiy fondlar qiymati ularning sotib olingan yoki barpo etilgan vaqtiga ko'ra bir-biridan sezilarli darajada farqlanuvchi baholarda belgilanadi va bu hol asosiy fondlar dinamikasi haqida, ularning sifati va yemirilish darajasi haqida haqiqiy tushunchaga ega bo'lish imkonini bermaydi. Baholarning omilining buzib ko'rsatuvchi

ta'sirini yo'qotish uchun asosiy fondlarni ularning hozirgi vaqtida qayta tiklash qiymati bilan baholashdan foydalaniladi.

Asosiy fondlarni dastlabki va qayta tiklash qiymati bo'yicha baholash ikki ko'rinishda, ya'ni to'la va qoldiq qiymat bo'yicha bo'lishi mumkin. To'la qiymat shu asosiy fondlarning ishlashi natijasida ularning tayyor mahsulotga o'tkazgan qiymati qismini hisobga olmaydi.

Qoldiq qiymat esa, asosiy fondlar dastlabki yoki qayta tiklanish qiymati bilan uning yemirilgan qismi qiymatining ayirmasiga tengdir:

$$K_k = F_d - \frac{N_a \cdot F_d \cdot T}{100}$$

Bu yerda:

$K_k$ -asosiy fondlarning qoldiq qiymati;

$F_d$ - asosiy fondlarning dastlabki qiymati;

$N_a$ -amortizatsiya ajratmalari me'yori;

$T$ - asosiy fondlarning foydalanish vaqt, yillar.

Asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati quydag'i ifoda orqali aniqlanadi:

$$F_{ort} = F_{y.b} + \sum \frac{F_i t_j}{12} - \sum \frac{F_{ch}(12-t_{ch})}{12}$$

Bu yerda:

$F_{y.b}$  - asosiy fondlarning yil boshidagi qiymati;

$F_i, F_{ch}$  - rejalashtirilgan yilda ishga tushadigan va ishdan chiqadigan asosiy fondlar qiymati;

$t_j, t_{ch}$  - rejalashtirilgan yilda asosiy fondlar ishga tushadigan va ishdan chiqadigan oylar.

Kon qazib chiqaruvchi korxonalarda asosiy fondlar xarajati ishdan chiqish koeffitsienti  $K_{ch}$  va yangilanish koeffitsienti bilan xarakterlanadi. Bu koeffitsientilar quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Q_{ch} = F_{ch/y.b} \quad Q_n = F_{y.b} / Fn.g$$

Bu yerda:

$F_{y,o}$  - asosiy fondlarning yil oxiridagi qiymati.

Asosiy fondlarning yil oxiridagi qiymati quydagicha aniqlanadi:

$$F_{y,o} = F_{y,b} + F_i - F_{ch}$$

Asosiy fondlar ishlab chiqarish jarayonida asta-sekin eskirib o‘z qiymatining ma’lum qismini amortizatsiya sifatida ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulot qiymatiga oz-ozdan o‘tkazib boradi va xarajatlar sifatida mahsulot tannarxiga kiritiladi.

Asosiy fondlar qiymatini to‘la tiklash uchun yillik amortizatsiya ajratmalarini quyidagi ifoda orqali aniqlash mumkun:

$$A_{t,t} = \frac{F_b - F_{q,q}}{M_M}$$

Bu yerda:

$A_{t,t}$ -asosiy fondlarni to‘la tiklash uchun yillik amortizatsiya ajratmalari, so‘m;

$F_b$  - asosiy fondlarni balans qiymatlari, so‘m;

$F_{q,q}$  - asosiy yemirilgan fondlarni qoldiq qiymati, so‘m;

$M_M$ -asosiy fondlarni belgilangan me’yorlik bo‘yicha xizmat qilish muddati, yil.

Amortizatsiya ajratmasining miqdori hamda asosiy fondlarning qiymatidan kelib chiqqan holda, ularni to‘la tiklash me’yorlarini quyidagi formuladan foydalanib aniqlanadi:

$$A_{MTT} = \frac{A_{T,T}}{F_b} \cdot 100$$

Bu yerda:

$A_{MTT}$  - asosiy fondlarni to‘la tiklash me’yori, %.

Asosiy fondlar amortizatsiya jamg‘armalari ularning har bir turi va o‘rtacha qiymati bo‘yicha belgilangan amortizatsiya me’yorlari asosida ularni to‘la qayta tiklash uchun alohida hisoblanadi.

Joriy nizomga muvofiq korxonalar asosiy fondlarini faol qismidan ularning ishlab turganligi, ta'mirlanayotganligi yoki bekor turganligidan qat'iy nazar amortizatsiya ajratmalari hisoblanadi.

Konchilik korxonalarida kapital lahimlarining amortizatsiya ajratmalari ikki guruh bo'yicha tonna stavkasida hisoblanadi.

Birinchi guruhga shaxta (rudnik)dan foydalanish davri davomida unga xizmat qiluvchi kon lahimlari va inshootlar kiradi (kapital transheyalar, shaxta Quduqlari, kapital shtolniylar, kvershlaglar, kutargich mashinalar binolari, bunkerlar, estakadalar va shu kabilar).

Ikkinci guruhga shaxta (rudnik), kar'er maydonlarining bir qismidagi foydali qazilma zaxiralarni qazib olishga mo'ljallangan kon lahimlari, shaxta maydonidagi er osti suvlarini chiqarib tashlash qurilmalari, shtreklar va boshqalar kiradi. Bu asosiy fondlarning to'la qiymati shaxta maydoning shu qismidagi zaxiralarni qazib olish davrida qazib chiqarilgan foydali qazilmalarning har bir tonnasiga asta-sekin o'tkazib borish yuli bilan qayta tiklanadi.

Shunday qilib tonna stavkasi orqali hisoblanadigan amortizatsiya ajratmalar asosiy fondlar har bir guruhi uchun alohida aniqlanadi. Bunda quydagi ifodadan foydalaniladi.

$$A_{t.s} = \frac{\text{asosiy fondlar qiymati}}{\text{shu fondlar yordamida qazib olinadigan zaxira}}, \text{so'm / tonna}$$

Bu yerda:

$A_{t.s}$  - tonna stavkasida hisoblanadigan amortizatsiya ajratma miqdori, so'm/tonna.

Korxona bo'yicha amortizatsiya ajratmalarning xajmini aniqlash uchun ularning amortizatsiya me'yorlari va tonna stavkasi orqali hisoblangan miqdorlari qo'shiladi. Ko'p yillik statistik ma'lumotlar asosida konchilik sanoati tarmoqlari uchun o'rtacha umumiyl amortizatsiya me'yorlari (tonna stavkasi va amortizatsiya me'yori) belgilangan.

## **1.2 Amortizatsiya ajratmarini aniqlash bo'yicha masalalar. Misol va masallarni yechish usuli.**

### **1-masala.**

Karyerning og'ir sharoitida 75 tonnalik yuk ko'taruvchi avtosomasvallari ishlaydi. Ularning bazoviy amortizatsiya ajratmalari:

to‘la tiklash uchun mashina 1000 km yurishiga uning qiymatidan 0,3% ni, kapital tiklashga 0,2% ni tashkil etadi. Mashinalarni og‘ir sharoitda ishlashini hisobga oluvchi koeffitsient 1,3 deb belgilangan. 75 tonnalik yuk ko‘utaruvchi mashinalar uchun 1,15.

Yechimi.

Korrektirovka qilingan amortizatsiya meyori 1000 km yo‘l yurish uchun quyidagini tashkil etadi.

Mashinani qayta tiklash uchun:

$$N_{a.t.t.} = 0,3(1,3 + 1,15 - 1) = 0,435$$

$$N_{a,k,r} = 0,2(1,3 + 1,15 - 1) = 0,29$$

2-masala.

Burg‘ulash stanogining ulguji narxi 330 mln.so‘m, uni konga keltirish va montajga ketgan xarajatlar 10,5 mln.so‘m, va 13,2 mln.so‘mni tashki etadi. Mashinani kapital ta’mirlash xarajatlari 12,5 mln.so‘mni tashkil etadi.

Burg‘ulash stanogining qoldiq qiymatini aniqlang?

$H = 330 \text{ mln. so'm}$

$X_M = 10,5 \text{ mln. so'm}$

$X_k = 13,2 \text{ mln.} \text{ so'm}$

$X_t = 12,5 \text{ mln.} \text{ so'm}$

*P = 30,4 mln.so‘m*

$\varrho = ?$

$$Q = H + X_M + X_K + X_T - P = 366,2 - 30,4 = 335,8$$

Qoldiq qiymati 335,8 mln.so‘m.

**3-masala.**

Burg‘ulash stanogining 15 yil mobaynida kapital ta’mirlash uchun ketgan haqiqiy xarajatlari 270 mln.so‘m. dastlabki qiymat 342 mln.so‘m. kapital ta’mirlash uchun amortizatsiya ajratmalari 4,9% ni tashkil etadi. Stanokning amortizatsiya ajratmalari hisobiga kapital ta’mirlash uchun moliyaviy jihatdan ta’minlanishi darajasi foizlarda aniqlang.

Yechimi.

$t = 15$  yil

$P = 270$  mln.so'm

$H = 342$  mln.so'm

$\alpha = 4,9\%$

1. Kapital ta'mirlash uchun amortizatsiya summasini aniqlaymiz:

$$\frac{342 \cdot 4,9}{100} = 16,758 \text{ mln.so'm}$$

2. Bir yillik kapital ta'mirlash summasi:

$$\frac{16,758}{18} = 0,931 = 93,1\%$$

Stanokning amortizatsiya ajratmalari hisobiga kapital ta'mirlash uchun moliyaviy jihatdan ta'minlanishi 93,1% darajasini aniqlaymiz.

#### 4-masala.

Korxonaning asosiy materiallarga bo'lgan bir kunlik talabi 82 mln.so'm. zahira me'yori 26 kun. Korxonaning aylanma mablag'lariga bo'lgan talabi topilsin.

$$82000000 \cdot 26 \text{ kunga} = 2132000000 \text{ so'm}$$

Korxonaning 26 kunlik aylanma mablag'i 2132 mln.so'm.

Asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymatini quyidagi formuladan aniqlaymiz:

$$F_{o.y.q} = F_{y.b.q} + \sum \frac{F_{kr} \cdot t_{kr.i.v}}{12} - \sum \frac{F_{chiq} (12 - t_{chiq.v})}{12}$$

Bu yerda:

$F_{y.b.q}$  – asosiy fondlarning yil boshidagi qiymati.

$F_{kr}$  va  $F_{chiq}$  – rejalarshirilgan yilda ishlab chiqarishga kiritilgan va ishdan chiqarilgan fondlarning qiymati.

$t_{kr.i.v}$  esa  $t_{chiq.v}$  – ishlab chiqarishga kiritilgan va ishdan chiqarilgan asosiy fondlarning rejalarashtirilgan yilda ishlov vaqtiga, oylarda.

### 5-masala.

Ekspeditsiyaning asosiy fondlari yil boshidagi qiymati 160 mln.so‘m. Reja bo‘yicha mart oyida 2,1 mln.so‘m, iyulda 1,3 mln.so‘m, noyabrda 5,6 mln so‘mlik asosiy fondlar ishlab chiqarishga kiritildi. Aprel oyida 1,2 mln so‘mlik va oktyabr oyida 1,8 mln so‘mlik asosiy fonlar ishdan chiqarildi.

Yechimi:

$$F_{o'rt} = F_{y.b} + \sum \frac{F_i t_j}{12} - \sum \frac{F_{ch}(12-t_{ch})}{12}$$

1. Asosiy fondlarning yillik o‘rtacha qiymatini aniqlaymiz:

$$F_{o'rt} = 160 = \frac{2,1 \cdot 9}{12} + \frac{1,3 \cdot 5}{12} + \frac{5,6 \cdot 1}{12} = \frac{1,2(12-4) + 1,8(12-10)}{12} = 161,49 \text{ mln.so‘m.}$$

2. Asosiy fondlarning yil oxiridagi qiymatini aniqlaymiz:

$$F_{y.o} = 160 + 2,1 + 1,3 + 5,6 - 1,2 - 1,8 = 166 \text{ mln.so‘m}$$

3. Asosiy fondlarning yangilanish koeffitsienti quydagicha aniqlanadi:  
Umumiy yil davomida kiritilgan asosiy fondlar.

a)  $2,1+1,3+5,6=90 \text{ mln.so‘m}$       b)  $K_{ya} = 9 / 160 = 0,056$

4. Asosiy fondlarning ishdan chiqish koeffitsienti:

a)  $1,2+1,8=3,0 \text{ mln}$       b)  $K_{ch} = 3 / 160 = 0,018$

### 6-masala.

Kon maydoning chuqur gorizontlarida razvedka ishlarini olib borish uchun stvol kavlab o‘tildi, uning birinchi gorizontini sarf xarajatlari 26 mln.so‘mni tashkil etdi va 4 mln tonna zahiralari borligi aniqlandi, ikkinchi gorizontning o‘ng qanotida 1,4 mln tonna zahira

aniqlandi, sarf-xorajatlar 47 mln so‘mni tashkil etdi. Chap qanotda 800 ming tonna zahiralar aniqlandi, sarf-xorajatlar 20 mln so‘mni tashkil etdi.

Yechim:

1 tonna zaxirani aniqlash uchun razvedka ishlaridagi xarajatlarni aniqlaymiz.

$$26000/4000+47000/400000+20000000/800=6,5+33,6+25=65,1 \text{ so‘m/t}$$

### 7-masala.

Karyerning ishlab chiqarish asosiy fondlarining yil boshidagi qiymati 374,3 mln so‘m, yil davomida: may oyida 860 ming so‘mlik, noyabr oyida 1200 ming so‘mlik asosiy fondlar hisobidan chiqarildi. Iyul oyida 1560 ming so‘mlik asosiy fondlar kiritildi. Aylanma fondlarning o‘rtacha qiymati 23,5 mln so‘m, yil davomida 275 ming tonna tovar rudasining xar 1 tonnasi 6300 so‘mdan sotildi. Rudaning tannarxi esa xar tonnasiga 5600 so‘mni tashkil etdi. Karyerning rentabellik darajasini aniqlang?

Yechimi:

1. Kar’erni asosiy fondlarini o‘rtacha yillik qiymatini topamiz.

$$F_{ort} = F_{yb} + \sum \frac{F_i t_j}{12} - \sum \frac{F_{ch} (12 - t_{ch})}{12}$$

Bu yerda:

$F_{yb}$  - asosiy fondlarning yil boshidagi qiymati;

$F_i, F_{ch}$  - rejallashtirilgan yilda ishga tushadigan va ishdan chiqadigan asosiy fondlar qiymati;

$t_j, t_{ch}$  - rejallashtirilgan yilda asosiy fondlar ishga tushashadigan va ishdan chiqadigan oylar.

$$F_{ort} = 374,3 + \sum \frac{1560 \cdot 5}{12} - \frac{860(12 - 5) + 1200(12 - 11)}{12} =$$

$$= 374,3 + (650 - 601,6) = 374,3 + 48,4 = 422,7 \text{ mln so‘m}$$

2. Korxonaning ruda sotilishidan olgan foyda miqdorini topamiz.

$$P = (N - T)Q = (6300 - 5600) \cdot 275 = 192500000 \text{ so'm}$$

$$R_f = \frac{P}{F_{asosi} + F_{aylanma}} \cdot 100 = \frac{192500000}{422,7 + 23,5} \cdot 100 = \frac{192500000}{446,2} \cdot 100 = 43,16\%$$

3. Mahsulot rentabelligi quydagicha aniqlanadi.

$$R_M = \frac{P_{foyda}}{xarajatlar} \cdot 100 = \frac{192500000}{5600 \cdot 275000} \cdot 100 = \frac{192500000}{1540000000} \cdot 100 = 12,5\%$$

### **Asosiy fondlarning yillik amortizatsya ajratmasini hisobi 1- jadval**

## **YECHISH UCHUN MASALALAR**

### **8- masala**

Ekskovatorning ulgurji narxi 3300 mln so‘m, uni karyerga keltirish va montajga sarflangan xarajatlar 10,5 mln so‘m va 13, 2 mln so‘mni tashkil etadi. Qazib olinadigan rudaga ekskovatorning o‘tkazgan qiymati 30,4 mln so‘mni tashkil etadi. Mashinaning kapital ta’mirlash xarajatlari 12,5mln so‘mni tashkil etadi

Ekskovatorning qoldiq qiymatini aniqlang?

### **9-masala**

Taxlil etilayotgan davrda ko‘mir sanoatining ishlab chiqarish asosiy fondlarining ulushi 89% ni, Temir ruda sanoatida esa 84% ni tashkil etadi Ko‘mir sanoatida asosiy fondlari qiymati 21610 mln so‘m, Temir ruda sanoatida esa 4840 mln so‘mni tashkil etadi.

Ko‘mir va Temir ruda sanoatidagi asosiy fondlarning qiymatini aniqlang.

### **10-masala**

Birlashmada taxlil etilayotgan davrda bir cho‘michli ekskovatorlar ro‘yxatdan chiqarildi. Bundan ikkitasini xizmat muddati 13 yil, 6 tasiniki 14 yil, 4 tasiniki 15 yil. Ekskovatorni to‘liq tiklash uchun amortizatsiya me’yori 7,4%.

Ekskovatorning xaqiqiy xizmat muddatini me’yordan oshib ketishini foizlarda aniqlang?

### **11-masala**

Burg‘ilash stanogi 15 yil mobaynida kapital ta’mirlash uchun sarflangan haqiqiy xarajatlari 2700 million so‘m. Dastlabki qiymati 3420 million so‘m. Kapital ta’mirlash uchun amortizatsiya ajratmalari 4.9 foizni tashkil etdi. Burg‘ilash stanogining amortizatsiya ajratmalari xisobiga kapital ta’mirlash uchun moliyaviy jixatdan ta’minalash darajasini foizlarda aniqlang.

### **12-masala**

Ishlab chiqarish birlashmasi asosiy fondlarining dastlabki qiymati 1600 mln so‘m, rejaga muvofiq mart oyida 2,1 mlng so‘m asosiy fondlarni iyul oyida 1,3 mln so‘m. Noyabr oyida 5.6 mln so‘mlik asosiy

fond ishga tushurildi. Aprel va Oktyabr oyida 1.2 va 1.8 mln so‘mlik asosiy fond ishdan chiqishi kuzatilmoqda  
Quyidagilarni aniqlash kerak:

- 1) Birlashmining asosiy fondlarini o‘rtacha yillik qiymatini.
- 2) Asosiy fondlarni yil oxirida qiymati
- 3) Asosiy fondlarni yangilash va chiqish koefitsentlarini aniqlash

### **13-masala**

Buldozerning ulgurji narxi 3500 mln so‘m, Karyerga keltirish xarajatlari ulgurji narxida 3% montaj xarajatlari esa 7% ni tashkil etadi. Maxsulot ishlab chiqarish xajmini o‘sishi va ishlab chiqarishni takomillashtirish natijasida ekskovator qiymati 12% ga pasaydi.

Buldozerning dastlabki va tiklash qiymatini aniqlang.

### **14-masala**

Ko‘mir taxtasini qurish smeta qiymati 5700 mln so‘m Shuningdek vaqtinchalik bino va inshoatlarning qiymati 90 mln so‘m, shaxtaning qurish smeta qiymatini 28,6 % Texnalogik uskuna va instrumentlarini keltirish xarajatlarini tashkil etadi.

Quyidagilarni aniqlash kerak:

- 1) Shaxtadagi asosiy fondlarning foydalanishga topshirish vaqtidagi qiymati.
- 2) Shaxtadagi asosiy fondlarning faol va nofaol qismining qiymatini aniqlash.

### **15-masala**

Rudnikdagi asosiy fondlarning yil boshidagi dastlabki qiymati 3450 mln so‘m. Yil davomida asosiy fondlarning ishdan chiqishi rejallashtirilmoqda: Fevral oyida 70 mln so‘m iyul oyida 30 mln so‘m oktyar oyida 40 mln so‘mlik asosiy fond ishdan chiqadi. Ayni vaqda Aprel oyida 120 mln so‘mlik iyun oyida 150 mln so‘mlik sentyabr oyida 80 mln so‘mlik asosiy fond ishga tushiriladi.

Rudnikdagi asosiy fondlarning o‘rtacha yillik qiymatini aniqlang.

## **1.3 Asosiy fondlardan foydalanish ko‘rsatkichlari**

Uskunalarning inventarlaridan foydalanish ko‘rsatkichi quyidagicha ifoda orqali ifodalanadi

$$K_{in} = \frac{Y_{ishdagi}}{Y_{um.s.}}$$

Bu yerda:

$Y_{ish}$  va  $Y_{um.s.}$  – bir turdag'i uskunalarining ishlayotganini va uskunalarining umumiyl soni.

Uskunalarining ekstensiv yuklanish koefsientni quyidagi ifoda bo'yicha aniqlash mumkin:

$$K_o = \frac{T_f}{T_k}$$

Bunda:  $T_f$  – uskunaning amaldagi ishlash vaqtি

$T_k$  – uskunaning kalender vaqtি bo'yicha ishlashi

Uskunaning intensiv yuklanish koefsienti ekstensiv va intensiv yuklanish koeffitsientilarini kopaytmasi sifatida aniqlanadi:

$$K_u = \frac{T_f}{T_k}$$

$P_f P_T$  – uskunalarining amaldagi va texnik unum dorligi.

Uskunaning umumiyl yuklanish koefitsienti

$$K_{um} = K_e \cdot K_i$$

### Masalalarni yechish usuli

#### 16-masala

Shaxta yil davomida uzlukli tartibda, xaitada 1kun dam olib ishlaydi. Qazish ishlari sutka davomida 3ta 6 soatlik smena tartibi bo'yicha ishlaydi. Hisobot yilda 2K-52 kombayni 4160 soat ishlagan. Kombayn yilda vaqtidagi meyor bo'yicha kapital remontga turish vaqtiga 22kun.

Kombaynning ekstensiv yuklanish koefsientini aniqlang.

1.Kombaynning kalender vaqtি

$$B_k = 365 \times 24 = 8760 \text{c.}$$

2.Shaxtaning rejim bo'yicha vaqt fondi.

$$T_p = (365 - 52 - 8) \cdot 6 = 5490 \text{c.}$$

3. Reja bo'yicha vaqt fondi.

$$T_n = (365 - 52 - 8 - 22) \cdot 6 = 5094 \text{c.}$$

4. Kombaynning kalendar vaqtiga nisbatan ekstensiv yuklanishi

$$K_E k = \frac{T_f}{T_k} = \frac{4160}{8760} = 0,474$$

5. Kombaynning rejim vaqtiga nisbatan ektensiv yuklanishi.

$$K_{e.r.} = \frac{T_f}{T_r} = \frac{4160}{5490} = 0,757$$

6. Kombaynning plandagi vaqt fondiga nisbatan ekstensiv yuklanishi

$$K_{e.p.} = \frac{T_f}{T_p} = \frac{4160}{5094} = 0,816$$

**17-masala.** Shaxtada kombayinning hisob yilida ishlagan vaqt 10200 soat, ilgarigi yilda esa 5796 soat ishlagan. Qazib chiqarish hajmi mos ravishda 352260 va 196470 tonnani tashkil etgan.

### Aniqlash kerak.

1. Hisobot va ilgari yildagi kombaynning 1 soatlik ishlab chiqarish unumdarligi.
2. Yil bo'yicha qazib chiqarish xajmini ortirishni.
3. Kombayndan ekstensiv va intensiv foydalanish ko'rsatkichini o'zgarish hisobiga qazib chiqarish hajmini oshishiga ta'sirini

### Yechimi

1. Kombaynning hisobot yilidagi 1 soatlik ishlab chiqarish unumdarligi.

Hisobot yilda

$$P_1 = \frac{Q_1}{T_1} = \frac{352260}{10200} = 34,53_t$$

$$P_0 = \frac{Q_0}{T_0} = \frac{196470}{5796} = 33,89_T$$

Ilgarigi yilda

1. Yil bo‘yicha qazib chiqarish hajmining o‘sishi.

$$\Delta Q = Q_1 - Q_0 = 352260 - 196470 = 155790t$$

2. Kombaynning ektensiv foydalanishining qazib chiqarish hajmiga ta’siri.

$$\Delta Q_T = (T_1 - T_0) P_0 = (10200 - 5796) 33,89 = 149282,4_T.$$

3. Kombayn intensiv foydalanishning qazib chiqarish hajmiga ta’siri.

$$\Delta Q_p = (P_1 - P_0) T_1 = (34,53 - 33,89) 10200 = 6528t.$$

4. Kombayndan ektensiv va intensiv foydalanishning qazib chiqarish hajmiga birgalikdagi ta’siri.

$$\Delta Q = \Delta Q_T + \Delta Q_p = 149282,4 + 6507,6 = 155790_T$$

## **18-masala.**

Temir ruda sanoatida ruda qazib olish hajmi o‘tgan yili 389,5 mln.t. Hisobot yilida 3,9 foizga oshdi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlarining o‘rtacha yillik qiymati o‘tgan yili 491920mln. So‘m.

Hisobot yilida 547450mln. So‘m bo‘lsa, quyidagilarni aniqlang?

1. Temir ruda sanoatidagi hisobot va o‘tgan yildagi fond samaradorligini

2. Temir ruda sanoatidagi hisobot va o‘tgan yildagi fond samaradorligining hisobot yilining o‘tgan yilga taqqoslab umumiyl o‘zgarishini

3. Qazib olish hajmining o'sishi va asosiy fondlar qiymatining ortishi hisobiga fond samaradorligini o'zgartirish.

### **Yechimi:**

1. O'tgan yildagi qazib olish hajmi

$$D = 389,5 + 100 = 404,7 \text{ mm}/T$$

2. O'tgan yildagi fond samaradorligi

$$Q^1 = D^1/F^1 = (389,5 \cdot 1000) / 4919,2 = 79,10 \text{ T/ming so'm}$$

3. Hiobot yildagi fond samaradorligi

$$O = D/F = (404,7 / 5474,5) \cdot 1000 = 73,9 \text{ T/ming so'm}$$

4. Fond samaradorligining umumiyligi o'zgarishi.

$$O - O' = 79,1 - 73,9 = 5,2 \text{ T/ming o'm}$$

5. Ruda qazib olish hajmining o'sishi hisobiga fond qaytimini o'zgarishi

$$(D/F) - (D'/F') = (404,7 / 5474,5) - (389,5 / 4919,2) = +3,1 \text{ ming so'm}$$

6. Asosiy fondlarning qiymati o'zgarishi hisobiga fond samaradorligining o'zgarishi.

$$(D/F) - (D'/F') = (404,7 / 5474,5) - (404,7 / 4919,2) = -8,3 \text{ ming so'm}$$

### **Yechish uchun masalalar**

#### **19-masala**

Ekskavatorning smenalik ish unumi  $1600 \text{ m}^3$  kon massasini tashkil etsa, uning pasportdagi unumi  $2000 \text{ m}^3$  bo'lsa, bunda ekskavatordan foydalanish intensivlik koeffitsiyentini aniqlang.

## **20-masala**

Ekskavatorning ko'mir qazib chiqarish bo'yicha amaldagi yillik ish vaqt 7645 soatni tashkil etgan. Ekskavatorning ko'mir qazib chiqarishdagi yillik ish unumdarligi 7060 ming t. Uning -texnikaviy ish unumdarligi soatiga 333 t, ekskavatorning ekstensiv va intensiv hamda integral foydalanish koeffisiyentini aniqlang.

## **21-masala**

Burg'ilash stanogining bazis yilidagi kalendar vaqt fondidan foydalanish ko'rsatkichi 0.54 ga teng. Bu koeffisiyentni bazis davrida amaldagi yillik o'sish koeffisiyentini 0,02, kelasi 5 yillik davrda rejorashtirilgan me'yoriy o'sishi 0.025 ga teng. Quyidagilarni aniqlang.

1. 2015 va 2020 yillardagi kalendar vaqt fondini me'yoriy koeffisiyentini.

2. Rejorashtirilayotgan davrda bazis yiliga nisbatan burg'ulash stanoklaridan foydalanishning me'yoriy va amaldagi o'sish koeffisiyentini.

## **2. KONCHILIK SANOATINING AYLANMA FONDLARI**

### **2.1. Aylanma fondlar, ularning tarkibi va tuzilishi.**

Aylanma ishlab chiqarish fondlari-korxona ishlab chiqarish fondlarining bir qismi bo'lib, bitta ishlab chiqarish sikli davomida sarflanadi hamda natural shaklini o'zgartirib, o'z qiymatini to'lig'icha tayyor mahsulot tannarxiga o'tkazadi. Shu sababli aylanma ishlab chiqarish fondlari ishlab chiqarish jarayonining majburiy elementi va ishlab chiqarish xarajatlarining asosiy qismi hisoblanadi.

Korxona aylanma ishlab chiqarish fondlari qatoriga xom ashyo va materiallar zaxirasi, yarim tayyor mahsulotlar, yoqilg'i va energetika resurslari, qadoqlash va o'rov materiallari, extiyot qismlar, tugallanmagan ishlab chiqarish va kelajakdagi xarajatlarni kiritish mumkin. Rejorashtirish, tizimli hisob va hisobotni tashkil qilish uchun qulaylik yaratish maqsadida aylanma ishlab chiqarish fondlari uch guruhga bo'linadi:

- ishlab chiqarish zaxiralari;
- tugallanmagan ishlab chiqarish va korxonada tayyorlangan yarim tayyor maxsulotlar;
- kelgusi davr xarajatlari.

Korxonalarining aylanma mablag‘lari aylanma fondlari va muomala fondlariga taqsimlanadi. Bunday taqsimlash ularning moddiy-buyumlashgan tuzilishidan tashqari , ishlab chiqarish jarayoni va umuman , korxonaning iqtisodiy faoliyatidagi ishtiroki asosida amalga oshiriladi. Bundan tashqari , taqsimlash rejalashtirishni tashkil qilishda hamda korxonaning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarida aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojini aniqlashda katta rol o‘ynaydi.

Muomala fondlari korxonaning tayyor mahsulot zaxirasini yaratish uchun mo‘ljallangan pul mablag‘lari , shuningdek, chek va veksellar , aksiyadorlarning qarzlari, turli xil debitorlik qarzlari, bank va kassalarning hisob raqamlaridagi mablag‘lardan iborat bo‘ladi. Muomala fondlari va aylanma ishlab chiqarish fondlari majmuasi, korxonaning aylanma mablag‘lari (kapital)ni tashkil qiladi.

Ishlab chiqarishda band bo‘lgan aylanma mablag‘lar kattaligini belgilovchi asosiy omillar – mahsulot tayyorlashning aylanma mablag‘lariga bo‘lgan umumiyligi extiyoj, ishlab chiqarish zaxiralari (xomashyo va asosiy materiallar, yordamchi materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, xarid qilinuvchi mahsulotlar, qadoqlash va o‘rov materialari, yoqilg‘i va hokazolar), tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot va kelgusi davr xarajatlaridan iborat bo‘ladi.

## **2.2. Aylanma mablag‘lardan foydalanish ko‘rsatkichlari va ularning aylanishini tezlashtirish yo‘llari.**

Aylanma mablag‘lar aylanishini tezlashtirish nafaqat korxona uchun, balki butun mamlakat iqtisodiyoti uchun xam katta axamiyat kasb etadi. U resurslarning nisbiy ozod qilinishini, ijtimoiy xarajatlarning kamaytirilishiga ko‘maklashadi va iqtisodiy rejalashtirish sur’atini oshiradi.

Korxona aylanma mablag‘laridan samarali foydalanish uch asosiy ko‘rsatkichni tavsiflaydi:

- 1) aylanish koeffitsienti;
- 2) aylanma mablag‘larning yuklanish koeffitsienti;
- 3) vositalarning bir marta aylanishi davomiyligi.

Aylanish koeffitsienti korxona aylanma mablag‘larining ma’lum bir vaqt (yil, chorak) davomida amalga oshiruvchi aylanishini tavsiflaydi yoki aylanma mablag‘larning xar 1 so‘miga tug‘ri keluvchi sotilgan mahsulotlarni ko‘rsatadi. U quyidagi formula asosida hisoblab topiladi:

$$K_a = S_m : K_a$$

Bu yerda:

$S_m$  - sotilgan mahsulot hajmi, pul o'lchovida;

$K_a$  – aylanma mablag‘larning o‘rtacha qoldik hajmi, pul o'lchovida (aylanma mablag‘lar me’yori).

Misol. Korxonaning bir yil mobaynida sotilgan mahsulotlari xajmi 800 mln. so‘mni tashkil qiladi. Bu xolda aylanma mablag‘lar me’yori 200 mln. so‘mni tashkil qiladi. Demak,

$$K_a = 4,4 \text{ (880:200).}$$

Aylanma mablag‘larni yuklanish koeffitsienti aylanish koeffitsientiga teskari bo‘lgan qiymatdir. U sotilgan har 1 so‘m mahsulotga sarflangan aylanma mablag‘larni tavsiflaydi hamda quyidagi formula asosida hisoblab topiladi:

$$K_{yu} = K_a : S_m$$

Bir marta aylanish davomiyligi kunlarda o‘lchanadi hamda shu davrdagi kunlar sonini aylanish koeffitsientiga nisbati orqali quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$T = K : K_a$$

Bu yerda:

$K$  – shu davrdagi kunlar soni (360,90).

Aylanma mablag‘larning to‘liq aylanish muddati qanchalik kichik yoki bu aylanishlar soni qanchalik ko‘p bo‘lsa, aylanma mablag‘lar shunchalik kam talab qilinadi va aksincha, aylanma mablag‘lar qanchalik tez aylanishda bo‘lsa, shunchalik samarali ishlatiladi.

Aylanma mablag‘larning aylanishini tezlashtirish samarasi, ulardan foydalanishni yaxshilash tufayli kamroq iste’mol qilinishi yoki qisman ozod qilinishida aks etadi. Aylanma mablag‘lar mutlaq yoki nisbiy ozod qilinishi mumkin.

Mutlaq ozod qilish korxonaning aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojini kamaytirishni tavsiflaydi hamda mavjud resurslardan ratsional

foydanishga oid turli tashkiliy-texnik chora-tadbirlar hisobiga amalga oshiriladi.

**22-masala.** Korxona aylanma mablag‘larining o‘rtacha miqdori 2014 yilda 1000 mln. so‘mni tashkil qilgan. 2015 yilda ishlab chiqarish hajmini o‘zgartirmagan holda 900 mln. so‘mni miqdorida ehtiyoj rejalashtirilmoqda. Bu holda asosiy vositalarning mutlaq ozod qilinishi 100 mln. so‘mni tashkil qiladi.

Nisbiy ozod qilish aylanma mablag‘lari hajmining o‘zgarishi hamda sotilgan mahsulot hajmining o‘zgarishini aks ettiradi. Uni aniqlash uchun hisobot yilida aylanma mablag‘larga ehtiyojni mahsulotni mazkur davr mobaynida sotish bo‘yicha haqiqiy aylanish hamda o‘tgan davrdagi aylanishni (kunlarda) inobatga olgan holda hisoblash zarur. Ular o‘rtasidagi farq ozod qilingan vositalar miqdorini beradi.

**23-masala.** Korxonada 2013 yilda sotilgan mahsulot qiymati 3600 mln. so‘mni. 2014 yilda esa 4000 mln. so‘mni tashkil qilgan. Aylanma mablag‘larning o‘rtacha qoldig‘i 2013 yilda 100 mln. so‘m, 2014 yilda esa 95 mln. so‘mni tashkil qilgan. Aylanish muddati 2013 yilda 100 kun ( $100 \times 360 : 360$ ). 2014 yilda aylanma mablag‘larga ehtiyoj 111 mln. so‘m ( $400 \times 100 : 360$ ). 2013 yilda aylanma mablag‘larning o‘rtacha qoldig‘i 95 mln. so‘mni tashkil qilganini hisobga oladigan bo‘lsak, vositalarning nisbiy ozod qilinishi 16 mln. so‘mni ( $111 - 95$ ) tashkil etadi.

### Misol va masalalar yechimi.

#### 24-masala

Konchilik korxonasini mahsulot realizatsiyasining yillik xajmi (ms) 11750 mln. so‘m. Aylanma mablag‘larning o‘rtacha yillik qiymati (Aq) 903 mln. so‘m. Aylanma mablag‘larning aylanish koeffitsienti va aylanma mablag‘larning o‘rtacha bir marta aylanish davomiyligini aniqlang.

Yechimi.

Aylanma mablag‘larning aylanish koeffitsientini topamiz.

$$K_a = \frac{Mc}{Ak} = \frac{11750000}{903000} = 13 \text{ aylanadi}$$

Aylanma mablag‘larning o‘rtacha bir marta aylanish davomiyligini aniqlaymiz.

$$T = \frac{360}{Ka} = \frac{360}{13} = 27,7 \text{ kun}$$

### **25-masala**

Hisobot yilida shaxtada narxi 98500 so‘mdan 123,0 ming tonna ko‘mir realizatsiya qilindi. Aylanma mablag‘larning o‘rtacha choraklik qoldig‘i : I chorakda – 8374,0 ming so‘m, II chorakda – 8582,0, III – chorakda 8945,0 , IV- chorakda esa – 9071 ming so‘mni tashkil etdi. Aylanma mablag‘lardan foydalinish ko‘rsatkichlarini aniqlang.

Yechimi.

Shaxtaning aylanma mablag‘larining o‘rtacha yillik qiymati quyidagicha:

$$A_{o'r.q.} = \frac{8374000 + 8582000 + 89450000 + 9071000}{4} = 8743000 \text{ so‘m.}$$

Aylanma mablag‘larning aylanish koeffitsientini topamiz:

$$K_a = \frac{1230000 \cdot 98,5}{8743000} = 13,9 \text{ aylanadi}$$

Bitta aylanishning o‘rtacha davomiyligini aniqlaymiz.

$$T_{a\underline{u}.M.} = \frac{360}{13,9} = 25,9 \text{ kun}$$

### **26-masala**

Konchilik korxonasi hisobot yilida 156340 ming so‘mlik mahsulot sotgan. Aylanma mablag‘larning o‘rtacha yillik qiymati 12700 ming so‘m bo‘lgan. Rejaviy davrda mahsulot sotish hajmi 10% ga o‘sishi rejallashtirilgan, aylanma mablag‘larning bir marta o‘rtacha aylanish muddati esa 4 kunga qisqarishi mo‘ljallangan.

Quyidagilarni aniqlang:

1. Rejaviy davrda aylanma mablag‘larga bo‘lgan talabni.

2. Aylanma mablag‘larning mutloq va nisbiy bo‘shaydigan qismini.

Yechimi:

Rejaviy davrda mahsulot sotish hajmini topamiz

$$Mc = 156340000 + \frac{156340000 \times 10}{100} = 171974 \text{ ming.so'm.}$$

Hisobot yilidagi aylanma mablag‘lardan foydalanish ko‘rsatkichlarini topamiz. Aylanma mablag‘larning aylanish koeffitsienti

$$E_a = \frac{156340000}{12700000} = 12,3 \text{ aylanish}$$

Bir marta aylanishning o‘rtacha muddati

$$O = \frac{360}{Ea} = 29,3 \text{ kun}$$

$$T = \frac{360}{Ka} = 29,3.$$

Rejaviy yildagi aylanma mablag‘larning foydalanish ko‘rsatkichlarini aniqlaymiz:

Bir marta aylanishning o‘rtacha muddati

$$T_{a.rej.} = 29,3 - 4 = 25,3 \text{ kun};$$

Aylanma mablag‘larning aylanish koeffitsienti

$$K_a = \frac{360}{25,3} = 14,2 \text{ aylanish};$$

Rejaviy yildagi aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojni aniqlaymiz.

$$A_{mabl.o'rt.yil} = \frac{Ms.reja}{Ka.reja} = \frac{171974000}{14,2} = 12111 so'm.$$

Aylanma mablag‘larning mutloq bo‘shagan summasi

$$A_{m.bo'shagan} = 12700000 - 12111000 = 589000 \text{ so'm}$$

Aylanma mablag‘larning nisbiy bo‘shagan qismi

$$B = \frac{Mmreja(Ta - Trej)}{tdavr} = \frac{171974000(29,3 - 25,3)}{360} = 1910822 \text{ so'm}$$

Bu yerda:

Mm.reja – reja davrdagi mahsulot sotish hajmi.

Ta – aylanma mablag‘larning bir aylanishining baza yilidagi davomiyligi, kunlar;

Tr – yuqoridagini o‘zi, reja yilidagi, kunlar soni

### **Yechish uchun misol va masalalar.**

#### **27-masala**

Korxonaning yil choraklari bo‘yicha aylanma mablag‘larning o‘rtacha qoldig‘i: I-chorakda 48300 ming so‘mni; II – chorakda 51100 ming so‘mni; III – chorakda 52100 ming so‘mni; IV – chorakda 49600 ming so‘mni tashkil etdi. Aylanma mablag‘larning bir marta aylanish muddati o‘rtacha 24 kun bo‘ldi.

Quyidagilarni aniqlang

1. Aylanma mablag‘larning aylanish koeffitsienti.
2. Agar shaxta ko‘mir Konchilik korxonasining yillik sotgan maxsulot majmui.

#### **28 - masala**

Konchilik korxonasining aylanma mablag‘larini o‘rtacha yillik qiymati 96000 ming so‘mni tashkil etdi. Korxona rejasi bo‘yicha 1370000 ming so‘mlik maxsulot sotilishi kerak edi amalda 1510000 ming so‘mlik maxsulot sotildi.

Quyidagilarni aniqlang:

1. Aylanma mablag‘lardan reja bo‘yicha va amlda foydalanish ko‘rsatkichlarini.
2. Aylanama mablag‘larning bo‘shaladigan summasini.

## **29-masala**

Konchilik korxonasi bo'yicha hisobot yilda aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymati 13400 ming so'm, avalgi yilda esa 12300 ming so'm edi. Maxsulot sotishdan tushum tegishli ravishda 208000 ming so'm va 182500 ming so'm.

Aylanma mablag'larning mutloq va nisbiy bo'shagan so'mmasini toping.

## **30-masala**

Shaxta bo'yicha yil davomida quyidagilar rejalashtirilgan:  
Ko'mir qazib chiqarish hajmi 630 ming tonna, shaxtaning o'zini ehtiyojlari uchun 36 ming t. ishlataladi, 1 t. ko'mirning tannarxi 920 so'm, aylanma mablag'larning miqdori 3420 ming so'm.

Quyidagilarni aniqlang:

1. Reja bo'yicha aylanma mablag'lardan foydalanish ko'rsatkichlarini.

2. Agar shaxta ko'mir hajmini rejaga nisbatan 8% ga oshirib bajarasa aylanma mablag'larning aylanishi qanchaga tezlashadi va qancha so'mlik aylanma mablag'lar bo'shaydi?

## **31-masala**

Razrezda yillik ko'mir qazib chikarish xajmi 2,0 mln.t. shundan 40,0 ming,t. korxonaning extiyojlari uchun, 20 ming tonnasi ishchi xodimlarga va nafaqadagilarga bepul beriladi. Ko'mirning sotilish ulgurji narxi 95 so'm/t. aylanma mablag'larning qiymati 18190 ming so'm.

1. Aylanma mablag'lardan, ko'mir qazib chiqarish xajmini 11% ga bajarilmay qolgan sharoitidagi, foydalanish ko'rsatkichlarini;

2. Reja bajarilgan sababli aylanma mablag'larni aylanishini sekinlashishi natijasida qo'shimcha talab qilinadigan aylanma mablag'lar so'mmasini toping.

## **32-masala**

1. Mehnat vositalarini qayta tiklanishi.
2. Asosiy fondlarni ta'mirlash turlari va ularni moliyalashtirish manbalari.
3. Korxonaning ishlab chikarish quvvati.

Korxona yil mobaynida rejaga asosan 9600 mln.so‘mlik maxsulot sotgan. Bunda aylanma mablag‘larning yillik qoldig‘i 160 mln so‘mni tashkil qiladi. Korxonada ayrim ishlab chikarish jarayonlari takomillashtirishi natijasida aylanma mablag‘larning aylanuvchanlik koeffitsienti jarayonni takomillashtirishdan so‘ng bo‘shatib olingan mablag‘ qiymati topilsin.

### **33-masala**

Konchilik korxonasing aylanma mablag‘larini o‘rtacha yillik qiymati 108000 ming so‘mni tashkil etdi. Korxona rejasi bo‘yicha 1370000 ming so‘mlik maxsulot sotilishi kerak edi, amalda 1816900 ming so‘mlik mahsulot sotildi.

Quyidagilarni aniqlang:

1. Aylanma mablag‘lardan reja bo‘yicha va amalda foydalanish ko‘rsatkichlari.
2. Aylanma mablag‘larning bo‘shaladigan so‘mmasini.

### **34-masala**

Konchilik korxonasi bo‘yicha hisobot yilida aylanma mablag‘larning o‘rtacha yillik qiymati 13400 ming so‘m avvalgi yilda esa 12300 ming so‘m edi. Maxsulot sotishdan tushum tegishli ravishda 208000 ming so‘m va 182500 ming so‘m.

Aylanma mablag‘larining mutloq va nisbiy bo‘shagan so‘mmasini toping.

### **35–masala**

Shaxta bo‘yicha yil davomida quyidagilar rejalashtirilgan:  
Ko‘mir qazib chiqarish xajmi 980 ming t. o‘zini extiyojlari uchun 36 ming t. ishlataladi, 1 t. ko‘mirning tanarxi 94000 so‘m, aylanma mablag‘larning miqdori 5130 ming so‘m.

Quyidagilarni aniqlang:

- 1.Aylanma mablag‘lardan rejadagi foydalanish ko‘rsatkichlarini;

2. Agar shaxta ko‘mir qazib chikarish xajmini rejaga nisbati 9% ga oshirib bajarsa, aylanma mablag‘larning aylanishi qanchaga tezlashadi va qancha so‘mlik aylanma mablag‘lar bo‘shaydi?

### **36– masala**

Karyerda yillik shebenka (chaqilgan tosh) hajmi 4,0 mln.m<sup>3</sup> t. shundan 110,0 ming m<sup>3</sup> korxona extiyoji uchun, 52 ming m<sup>3</sup> ishchi xodimlarga va nafaqadagilarga bepul berildi. Shebenkaning 1m<sup>3</sup> ni sotilishi ulgurji narxi 8000 so‘m. Aylanma mablag‘larning qiymati 1723000 ming so‘m.

1. Aylanma mablag‘lardan, shebenkani qazib chiqarish hajmini 12% ga bajarib qolgan sharoitidagi, foydalanish ko‘rsatkichlarini;

2. Reja bajarilmagan sababli aylanma mablag‘lar aylanishini sekinlashishi natijasida qo‘srimcha talab qilinadigan aylanma mablag‘lar so‘mmasini toping.

### **37-masala**

1. Bozor munosabatlari sharoitida konchilik korxonalarini moliyalash tizimi.

2. Asosiy fondlar amortizatsiyasi va amortizatsiya me’yorini belgilash uslubi. Amortizatsion ajratmalardan foydalanish. Yangi sharoitlarda amortizatsion ajratmalarni taqsimlash bo‘yicha korxonalarning xuquqlari qanday o‘zgaradi?

3. Konchilik sanoati xodimlarning tarkibiy o‘zgarishiga texnika tarqqiyotining ta’siri qanday?

### **38-masala.**

Agar aylanma mablag‘lar qoldig‘i 1/1-2003 yilda – 21000 ming so‘mni, 1/1-2004 yilda – 19000 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, yil davomida aylanma mablag‘lardan foydalanish ko‘rsatkichlarini aniqlang. Yil davomida realizatsiya qilingan maxsulot so‘mmasi 250000,0 ming so‘mni tashkil qildi.

### **39- masala**

Ruda boshqarmasi bo‘yicha yilning I choragida 289981 ming so‘mlik maxsulot sotilgan. Aylanma mablag‘larning o‘rtacha qoldig‘i yanvar oyida 19898,4 ming so‘mni, fevral oyida 18112,5 ming so‘mni va mart oyida 1987,4 ming so‘mni tashkil etdi.

Aylanma mablag‘lardan foydalanish ko‘rsatkichini aniqlang.

#### **40- masala**

Xisobot yilida konchilik korxonasi bo‘yicha 89890 ming so‘mlik mahsulot sotilgan. Aylanma mablag‘larning bir marta aylanish muddati 24 kunni tashkil etadi, rejaviy yilda esa 3 kunga qisqardi. Aylanma mablag‘larning yillik o‘rtacha qiymatini va aylanma mablag‘larning aylanish koeffitsientini xisobot va rejaviy yil uchun aniqlang.

#### **41- masala**

- 1.Aksionerlik shaklda xo‘jalik yuritishning mohiyati va ahamiyati.
- 2.Konchilik sanoati korxonalarning asosiy fondlari, ularning vazifalari, strukturasi.
- 3.Konchilik korxonalarida qo‘llaniladigan moliyaviy xisob-kitoblarning shakllari va ularning mohiyati.

2006 yildagi realizatsiya qilingan mahsulot xajmi 340mln.so‘m. Shu yildagi aylanma fondlarning 1 marta aylanish tezligi 2005 yilga nisbatan 2006 yilda 2 kunga qisqargan. Aylanma mablag‘larning o‘rtacha qoldiq qiymati 2005 18 mln.so‘mni tashkil etdi. Realizatsiya qilingan maxsulotning 2006 yildagi qiymati 2005 yildagiga teng. Aylanma mablag‘lar qiymati qancha qisqarishini aniqlang.

#### **42- masala**

Ruda boshqarmasi bo‘yicha yilning 1 choragida 183742 ming so‘mlik maxsulot sotilgan. Aylanma mablag‘larning o‘rtacha qoldig‘i yanvar oyida 17543.40 ming so‘mni, fevral oyida 18112.5 ming so‘mni va mart oyida 18247.1 ming so‘mni tashkil etdi.

Aylanma mablag‘lardan yil bo‘yicha foydalanish ko‘rsatkichini aniqlang.

#### **43- masala**

1. Konchilik sanoatida investitsiya samaradorligi;
2. Konchilik sanoatida ilmiy-texnika taraqqiyoti;
3. Konchilik korxonalarini bozor iqtisodi sharoitida moliyalashtirish va kreditlash;

#### **44- masala**

Quyidagi ma'lumotlar asosida mablag'dan foydalanish ko'rsatkichlarini aniqlang. Konchilik korxonasini reja bo'yicha 600 mln. so'mlik metal konsentrati sotishni rejalashtirgan, aylanma mablag'larning miqdori 3.0000 ming so'mni amalda sotilgan metall konsentrati miqdori esa 620 mln. so'mni tashkil etdi. O'rtacha aylanma mablag'larning qiymati 29000 ming so'm.

#### **45-masala**

1. Asosiy ishlab chiqarish fondlarini hisobga olish va baholash.
2. Tarmoq iqtisodiyoti mustaqil fan sifatida (mikroekonomika)
3. Korxonada mehnatga haq to'lash.
4. Masala.

Konchilik sanoatining aylanma mablag'larining o'rtacha yillik qiymati 2348000 mln. so'm. Shuningdek yordamchi materiallar 258000, yoqilg'i 117500, tara 6100, ehtiyoq qismlar 352200, arzon narxli tez emiriladigan buyumlar 183500, ochish ishlari 105700 materiallar 140,9 ombordagi tayyor mahsulot 112, pul mablag'lari 2830, boshqa aylanma fondlar 3790 ming so'm konchilik sanoatini aylanma mablag'larini tarkibiy tuzilishini aniqlang.

#### **46-masala**

1. Investitsiya tushunchasi va uning moxiyati.
2. Asosiy fondlardan foydalanish ko'rsatkichlari va uni yaxshilash yo'llari.
3. Korxona faoliyati samaradorligini oshirish omillari.

#### **47- masala**

Shaxtadan 1230 ming tonna tovar holatidagi ko'mir qazib chiqarildi. 1 tonna ko'mirning narxi 98,5 ming so'm.

Aylanma mablag'larning o'rtacha kvartal bo'yicha qoldiqlari quyidagicha I – 837400 ming so'm, II – 858200 ming so'm, III – 894500 ming so'm, IV – 907100 ming so'm.

Rejalashtirilgan yilda ko'mirning narxi 15 % kamayadi, ishlab chiqarish hajmi 7% ga pasayadi. Aylanma mablag'larning yil oxiriga qoldig'i 550000 ming so'mni tashkil qiladi. Aylanma mablag'lardan

foydalanish ko'rsatkichlarini va uning umumiy kamayish summasini toping.

#### **48- masala**

1. Korxonaning belgilari va vazifalari.
2. Aylanma mablag'larni me'yorlash va ularni moliyalashtirish manbalari.
3. Ishlab chiqarish fondlarini tasnifi.

#### **49- masala**

Konchilik korxonasida tovar maxsulotini narxi hisobot yilida 15634 ming so'm aylanma mablag'larning o'rtacha qoldiqlari 1270 ming so'm. Reja asosida tovar mahsulotini ishlab chikarish hajmini 10% oshirish mo'ljallangan. Maxsulot hajmi pasayishi 1.5 % ga aylanma mablag'larni 1 aylanish davomiyligi 4 kunga qisqartirish mo'ljallangan. Rejalashtirilgan davrda aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish, aylanma mablag'larning ozod qilish ko'rsatkichlarini aniqlang.

#### **50 - masala**

1. Investitsiya samaradorligi haqida tushuncha.
2. Konchilik sanoatida chet el investitsiyasini jalb etish.
3. Biznes reja.
4. Masala.

1 – jadvalda berilgan ma'lumotlar asosida aylanma mablag'lardan foydalanish asosiy ko'rsatkichlarini va bo'shagan mablag'lar qiymatini aniqlang.

Bunda rejalashtirilgan davrda aylanma mablag'larga bo'lgan extiyoj, aylanish koeffitsienti aylanma mablag'larning aylanish davomiyligi

2-jadvalda keltirilgan.

| Ko‘rsatkichlar   | Shaxta    |
|--|-----------|
| Hisobot yilida tovar mahsulotni qiymati, ming so‘m           | 18200000  |
| Hisobot yilida aylanma mablag‘larining qoldiqlari, ming so‘m | 132700000 |
| Rejalashtirilgan davrda tovar mahsulotni hajmini oshishi %   | 10        |
| Bir aylanishning davomiyligini qisqartirishi, kun            | 4         |

### 3. KORXONALARNI MODERNIZATSİYALASH VA TEXNIK QAYTA QUROLLANTIRISHNING SAMARADORLIGI

#### 3.1 Asosiy fondlarni modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishning samaradorligini aniqlashning nazariy asoslari

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash – ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma’naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora tadbirlarni o‘z ichiga oluvchi jarayon.

Korxonalarni texnik va texnologik yangilash – alohida ishlab chiqarish turlarini zamonaviy talablarga asosan yangi texnika va texnologiyalarni kiritish, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyashtirish va avtomatlashtirish, eskirgan qurilma va uskunalarini yangilash va almashadirish, ishlab chiqarish tuzilmasi va tashkil etilishini yaxshilash yo‘li bilan, korxonaning texnik darajasini oshirish bo‘yicha chora – tadbirlar majmuasi.

Korxonani rekontruksiylash – korxonadagi texnologiya jarayonlarini takomillashtirish va yangi ishlab chiqarish vositalari bilan qayta jihozlash maqsadida zaruriy qurilish – montaj ishlarini bajarish orqali amalga oshiriladi.

Korxonalarini modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishning xar bir obyekti bo'yicha samaradorligi aniqlanadi

Samaradorlik – bu foydalilik natijalikdir. Samaradorlikni aniqlash uchun natijani shu natijaga erishishga sarflagan xarajatlar yoki resurslar bilan taqqoslash kerak. Samaradorlik ishlab chiqarish faoliyati natijalari bilan ularga erishish uchun sarflangan mehnat, moddiy va moliyaviy resurslarning o'zaro nisbatidir, yani.

$$S = \frac{\text{natija}}{\text{xarajatlar}} = \frac{\text{natija}}{\text{mehnat, moddiy va moliyaviy resurslar}}$$

Faoliyatdagi konchilik korxonalarini rekonstruksiya qilish, kengaytirish samaradorligini aniqlash uchun capital mablag'larning umumiy (mutlaq) va qiyosiy samaradorligi aniqlanadi.

Umumiy iqtisodiy samaradorlik quydagi ifoda orqali aniqlanadi

$$S_y = \frac{\Delta P}{K_x} > E_a$$

Bu yerda:  $\Delta P$  faoliyatdagi korxonani rekonstruksiya qilish, kengaytirish natijasida yillik samaraning o'sishi.

Korxonani rekonstruksiya qilish yoki kengaytirishdan keyin ishlab chiqarish fanlarining umumiy samaradorligi quydagi ifoda vositasida aniqlanadi.

$$S_{y.r} = \frac{\sum_{i=1}^n (H_{m.i} - T_{m.i}) Q_{Kyil.m.i.}}{F_f + K_{m.p.} + K_q}$$

Bu yerda:  $H_{m.i}$  – korxonani rekonstruksiya qilingandan yoki kengaytirilgandan keyingi bir birlik mahsulotning ulgurji narxi, so'm/T;  $T_{m.i}$  – korxonani rekonstruksiya qilingandan keyingi bir birlik mahsulotning tannarhi, so'm/T;  $Q_{Kyil.m.i.}$  – korxonani rekonstruksiya qilingandan yoki kengaytirilgandan keyingi i – maxsulotini ishlab chiqarishni yillik hajmi;  $F_f$  – faoliyatdagi korxonani ishlab chiqarish fondlarini rekonstruksiya qilingandan yoki kengaytrilgandan keyingi qiymati;  $K_{m.p.}$  – korxonani faoliyatidagi quvvatini saqlab turish uchun sarflangan kapital mablag'lar.

Ishlab chiqarish – texnik vazifani hal etishning biror variyantining ijtimoiy – iqtisodiy afzalligini asoslab berish, taqdim etilgan variyatlardan eng samaralisini tanlab olish maqsadida aniqlanadigan samaradorlik qiyosiy samaradorlik deb ataladi. Qiyosiy samaradorlik ikki va undan ortiq variyantni taqqoslash va shu asosda bir variyantning boshqa variyatlardan ustunligi va optimalligini aniqlab beradi.

Optimal variyantni tanlash hamda uni asoslash uchun qo'shimcha kapital mablag'larning qoplanish muddati yoki qiyosiy samaradorlik koeffisentini hisoblab chiqish va ular miqdorini normativ qiymati bilan taqqoslash kerak.

Qo'shimcha kapital mablag'larning o'zini qoplash muddati (B) qo'shimcha kapital mablag'larning(-) mahsulot tannarxini pasaytirishdan olingan tejam ( $T_1-T_2$ )ga nisbati bilan aniqlanadi:

### **3.2 Asosiy fondlarni modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirish bo'yicha misol va masalalar.**

#### **51-masala**

Faoliyatdagi ko'mir razrezning yillik ishlab –chiqarish quvvati 7 mln.t. rekonstruksiyadan so'ng uning ishlab chiqarish quvvati 12 mln.t. gacha oshadi. Razrezni rekonstruksiya qilish uchun 240mml so'm (zarur) sarflanadi. Agarda ishdan chiqayotgan uchastkalarni o'rniga yangi uchastkalarni ishga tushirish bo'yicha rekonstruksiya qilinmagan taqdirda 2,6mln so'm kapital mablag'lar sarflanadi. Qo'shimcha ko'mir qazib olish bo'yicha razrez rekonstruksiya qilinmay yangi razrez qurilsa bir birlik (1t) quvvatga sarflanadigan kapital mablag'lar 3000 so'm /t , rekonstruksiyadan so'ng asosiy farqlarning amartizatsiya qilinmagan qismini qiymati 38 mln. So'm 1t ko'mirni qazib olish 28000 so'm, rekonstruksiya qilingandan keyin esa 21 ming so'mni tashkil etadi.

Razrezni rekonstruksiya qilmay, qo'shimcha ko'mir qazib olish uchun yangi razrez qurilsa, mahsulotning tannarxi 19 ming so'mni tashkil etadi.

Razrezni rekonstruksiya qilishning samarali ekanligini isbotlash uchun sarflanadigan qo'shimcha kapital mablag'larning o'zini qoplash muddatini topish kerak.

Yechimi .

1. Rekonstruksiyalanmaganda, yiliga 12 ming tonna ko‘mir qazib olish uchun umumiy capital mablag’larni aniqlaymiz.

$$K_1 = 26000 + 3000 \cdot 5 = 26000 + 15000 = 41000 \text{ ming so‘m.}$$

(12-7)=5ming.t – rekonstruksiyadan keyin olinadigan ko‘mir miqdori.

26 mln so‘m – rekonstruksiyadan qaytib yangi uchastkani o‘zlashtirishi capital xarajatlari.

3000so‘m/T – bir tonna ko‘mir olish uchun zaruriy kapital mablag’

2. Rekonstruksiyadan qaytib yangi uchastkani o‘zlashtirgandagi capital mablag’larni aniqlaymiz.

$$\Delta K = 240000 - (41000 + 38000) = 79000 \text{ ming so‘m}$$

Bu yerda  $31000 = K_1$ ; 3800 ming asosiy fondlarning amortizatsiya qilinmagan qismi.

3. Rekonstruksiyadan qaytilganda yillik ekspluatatsiya xarajatlarni topamiz.

$$C_1 = 28000 \cdot 7 + 19000 \cdot 5 = 196000 + 9500 = 291000$$

4. Razrez rekonstruksiya qilinganda yillik ekspluatatsion xarajatlar.

$$C_2 = 21000 \cdot 12 = 252000 \text{ ming}$$

$$\Delta C = C_1 - C_2 = 291000 - 252000 = 39000 \text{ ming so‘m.}$$

5. Rezrezni rekonstruksiya qilish uchun zarur bo‘ladigan qo‘sishimcha capital mablag’larning o‘zini qoplash muddati – T quyidagi ifodadan aniqlanadi

$$T = \frac{K_2 - K_1 \pm \sum \Delta K + F_l}{S_1 - S_2 + \sum E};$$

$$K_2 - K_1 \pm \sum \Delta K + F_l$$

Bu yerda:

$K_2$  va  $K_1$  – rekonstruksiya qilinganda yoki qilinmagandagi variantlar bo‘yicha capital mablag’lar.

$C_2$  va  $C_1$  – o‘sha variantlar bo‘yicha ekspluatatsion xarajatlar E – rekonstruksiya bilan bo‘g’liq bo‘lgan ekspluatatsion xarajatlarni tejami yoki xarajatlarini o‘sishi

$$T = \frac{\Delta K}{\Delta S} = \frac{161000}{39000} \text{ ming so'm} = 4,12 \text{ yil}$$

6. Rekonstruksiya samarali ekan, chunki  $T < T_{M(N)}$

## 52-masala

Yillar buyicha taqsimlangan ishlab chiqarish fondlarining kapital qurilishiga sarflangan mablaglar 3 variant boyicha solishtirilgan (3-jadal).

Kapital qurilishiga sarflangan toliq mablag’ni diskont meyori 0,2  
3-jadal

| Variantlar | Yil bo‘yicha kapital qurilishga ketgan mablaglar hajmi |       |       |       | Kapital qurilishga ketgan mablaglar hajmining yigindisi |
|------------|--|-------|-------|-------|---|
|            | 1-yil  | 2-yil | 3-yil | 4-yil |   |
| 1          | 10   | 10    | 10    | 10    | 40  |
| 2          |  | 20    | 15    | 10    | 45  |
| 3          |  |       | 30    | 20    | 50  |

### Yechimi

Kapital qurilishiga to`la sarflangan mablaglar yigindisi variantlar boyicha mln.som diskonlash koeffinsentini aniqlash formulasi

$$a_t = \frac{1}{(1+E)^t} \quad \text{samaradorlik koeffisenti} \quad E = 0,15$$

$$I. \quad \frac{10}{1+0,2} + \frac{10}{(1+0,2)^2} + \frac{10}{(1+0,2)^3} + \frac{10}{(1+0,2)^4} = 25,88 \text{ mln so'm}$$

$$II. \quad \frac{0}{1+0,2} + \frac{20}{(1+0,2)^2} + \frac{15}{(1+0,2)^3} + \frac{10}{(1+0,2)^4} = 27,3 \text{ mln so'm}$$

$$III. \quad \frac{0}{1+0,2} + \frac{0}{(1+0,2)^2} + \frac{30}{(1+0,2)^3} + \frac{20}{(1+0,2)^4} = 27,03 \text{ mln so'm}$$

### **53-masala**

Kapital qurilishga to'la sarflangan mablag`larni qoplash muddatini 3-jadval ma'lumotlari bo'yicha aniqlangan:

1. Kapital mablag`larni diskontlangani etiborga olmay hisoblaganda;
2. Kapital mablag`larni diskont meyori 0,2 bo'lgan diskontlanganligini etiborga olib hisoblaganda

Boshlang`ich ma'lumotlar

3-jadval

| Ko`rsatkichlar                                       | 1-yil                    | 2-yil                    | 3-yil                    | 4-yil                    |
|--|--------------------------|--------------------------|--------------------------|--------------------------|
| Kapital qurilishga sarflangan mablag` xajmi          | <b>5000</b>              | <b>1000</b>              | -                        | -                        |
| Ishlab chiqarilgan mahsulot xajmi (QQSsiz)           | <b>4000</b>              | <b>8000</b>              | <b>10000</b>             | <b>10000</b>             |
| Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi amortizatsiyasi | <b>3000</b>              | <b>5500</b>              | <b>6000</b>              | <b>6000</b>              |
| Foydadan olinadigan soliq va boshqa to`lovlar        | <b>300</b><br><b>200</b> | <b>400</b><br><b>400</b> | <b>400</b><br><b>500</b> | <b>400</b><br><b>500</b> |

## **4. KORXONALARDA ISH HAQINI REJALASHTIRISH.**

### **4.1. Ish haqini aniqlash bo'yicha uslubiy ko`rsatmalar**

Ish haqi yollanma xodim daromadining elementi, unga tegishli ish kuchiga bo'lgan mulkchilik huquqini iqtisodiy jihatdan ro'yobga chiqarish shaklidir. Shu bilan birga ish beruvchi uchun yollanma xodimlar mehnatiga to'lanadigan haq ishlab chiqarish xarajatlarining elementlaridan biri hisoblanadi .Ish beruvchi mehnat resurslaridan ishlab chiqarish omillaridan biri sifatida foydalanish uchun uni xarid qiladi. Mehnat unumдорлиги omilining o'sishi hisobiga ishlovchilar sonining nisbatan ozod bo'lishi (bazali davrida barcha ishchilarga nisbatan foizlarda)

Rejalashtirilgan davrda ishchilarning o'rtacha ish haqi:

$$Z_{pl} = Z_{baz} \frac{100 + \Delta RS}{100}$$

Bu yerda:

$Z_{reja}$ — bazali davrida ishchilarning o'rtacha ish haqi.

Rejalashtirilgan davrda ishchi mehnat unumдорligining o'sishi foizlarda.

Boshqa kategoriyadagi sanoat ishlab chiqarish personal (ITX, xizmatchilar, kichik xizmat ko'rsatuvchi xodimlar):

$$Z_{reja} = Z_{baz} + \frac{(Z_{baz} - Z_o)r_0}{r_{reja}}$$

Bu yerda :

$Z_{baz}$ -bazali davrda boshqa kategoriyadagi sanoat ishlab chiqarish personalining o'rtacha ish haqi , so'm.  $Z_o$ -bazali davrda boshqa kategoriyadagi sanoat ishlab chiqarish personali ishdan ozod bo'lgan  $r_0^1$   $r_{reja}^1$  - boshqa sonining o'rtacha ish haqi, so'm . kategoriyadagi sanoat ishlab chiqarish personalining soni ozod bo'lgan va rejalashtirilgan davr bo'yicha ishchilarning rejaviy ish haqi fondi

$$Frej=Nro'yZrej$$

Bu yerda :

$N_{ro'y}$ -ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi soni, kishi,  
 $Z_{reja}$ ishchilarning o'rtacha ishhaqi, so'm.

Vaqtbay ish haqi tizimida ishlaydigan ishchilarning to'g'ri ishlaydigan ish haqi fondi

$$F = \sum \cdot TN_i V_{kuni}$$

Bu yerda:

T-ushbu kasbdagi ishchining tarif stavkasi , so'm  
 $N_i$ -ishdag'i ishchilar soni, kishi ,  $V_{kun}$ -rejalashtirilgan davrdagi ish vaqt davomiyligi , soat

## 4.2. Namunaviy masalalar yechimi bilan va yechish uchun masalalar

### 54-masala

Uchastka to'xtovsiz grafik asosida ishlaydi . Bayram kunlarida xam 39 kishi ishlaydi. Ishchining o'rtacha razryad darajasi IV Ularning kunlik ish haqi 25000 so'm. Uchastkada 3 ta o'smir II razryad bo'yicha ishlaydi . Bu razryad bo'yicha kunlik tarif stavkasi – 17900 so'm . Bitta ishchining –yillik samarali ish vaqt

fondi 277 kun . Emizikli onalar tanaffusi uchun ish vaqtini yo‘qotish o‘rtacha bir ishchiga 1,1 tunni tashkil etadi . Uchastka ishchilarining yillik ish haqi fondi topilsin ?

Yechimi :

1.  $39 * 1,1 = 42,9$  kun
2.  $277 - 42,9 = 234,1$  kun
3. 3 ta o‘smirning ish haqi  $17900 \times 3 = 53700$  so‘m
4. katta yoshdagi ishchilar soni  $39 - 3 = 36$  kishi
5. 36 kishini ish haqi  $36 \times 250009$  (qabul qildik) = 900000 so‘m
6. Jami ish haqi  $900000 + 53700 = 953700$  so‘m
7. Yillik ish haqi fondi  $953700 \times 234,1 = 223261170$  so‘m

Uchastka ishchilarining kunlik ish haqi fondi- 223261170 so‘mga teng

**55-masala.** Mexanika uchastkasida 10 nafar ishchi mo‘tadil ish sharoitida 2 razryad birga ishlagan . Bitta nazoratchining yillik samarali ish vaqtini fondi 270 tunni tashkil qilgan. Smena davomiyligi 7 soat . Smenalik 1smenalik tarif bo‘yicha to‘lanadigan ish haqi 17900 so‘m . Jami ishchilarning ish haqi fondi topilsin ?

Yechimi .

$$270,0 * 7 \text{ soat} = 1890 \text{ soat}$$

$$10(\text{kishi}) * 1890 = 18900 \text{ soat}$$

- Smenalar soni  $1890 : 7 = 2557,1$  smena
- $2557,1 \times 17900 = 45772,090$  so‘m  
Jami ishchining yillik tarif ish haqi fondi 45772,090 so‘m

**56-masala**

Tarmoq bo‘yicha ko‘mir qazib olish hajmi 760 mln . t. Bir ishchining o‘rtacha yillik mehnati unumdarligi 835 ,3 t. Qazib olishdagi ishchilarning o‘rtacha bir oylik ish haqi 160 ming so‘m Tarmoq bo‘yicha qazib olishdagi ishchilarning ish haqi fondi topilsin.

### **57-masala**

Mexanika sexida 10 nafar texnik nazoratchi mo‘tadil ish sharoitida 2-razryad bo‘yicha ishlagan. Bitta nazoratchining samarali soati. Jami nazoratchilarning yillik ish haqi fondi topilsin.

### **58-masala**

Sex ishchilarining yillik tariff ish haqi fondi 400 mln . so‘m. Rejalashtirilgan o‘rtacha yillik mukofot 10% . Smena davomiyligi 7 soat . Ishlab chiqarish jaryoni to‘xtovsiz tashkil qilingan. Sex ishchilarining soatli ish haqi fondi topilsin .

### **59-masala**

Korxonada mahsulot chiqarish miqdori 10% ga , ishlovchilar soni 1,4% ga ortishi kerak . Ishlab chiqarish hajmi ko‘pyishi natijasida mehnat unumdorligini ortish normasi topilsin.

## **5. ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA MAHSULOT TANNARXI**

### **5.1. Mahsulot tannarxini aniqlash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar**

Bir tonna foydali qazilmaning tannarxi quyidagi ifoda orqali aniqlanadi

$$T = \frac{T_{tav}}{D - q}$$

Bunda  $T_{tav}$  - Tovar mahsulotining tannarxi, so‘m

D—ko‘mir qazib chiqarish hajmi, t.

q — ko‘mirning korxonani o‘zini ehtiyoji uchun sarflagan miqdori, t Ruda qazib chiqaruvchi korxonalarda 1t rуданинг танарси, кон - boyitish korxonalarida rudaga yoki konsentrдаги 1t. metallning tannarxi aniqlanadi. Kon tayyorlov ishlarini hisobdan chiqarish quyidagi formuladan aniqlanadi.

$$T_{gp.r} = \frac{3n.g + 3t.r}{Q_{tayyorlov}}$$

Bu yerda:

3н.г—йил босига hisobdan chiqarilgan kon - tayyorlov ishlarining qiymati, so'm;

3т.г—йил davomida kon - tayyorlov ishlarining bajarish uchun sarflangan harajatlar, so'm;  $Q_{tayyorlov}$  - tayyorlangan zaxiralarning hajmi, т.

Ayrim omillarning mahsulot tannarxiga ta'siri quyida keltirilgan ifodalar vositasida aniqlanadi:

Mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sishi.

$$\Delta T = B - \frac{B}{K_n}$$

Bu yerda:

$\Delta T$  - mahsulot tannarxining bazis davrga nisbatan o'zgarishi, %;

$B$  - bazis davridagi mahsulot tannarxida shartli o'zgarmas xarajatlarning ulushi, %;

$K_n$  - mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sishi (rejadagi mahsulot ishlab chiqarish hajmini bazis davridagi mahsulot ishlab chiqarish hajmiga bo'lgan nisbati sifatida aniqlanadi); Material, yoqilg'i, energiya sarfining qisqarishi

$$\Delta T = \frac{d \cdot B_m}{100},$$

Bu yerda:

$d$ —mahsulot birligiga material, yoqilg'i, energiya sarfining kamayishi, %;

$B_m$ —material, yoqilg'i, energiyaning ma'lum turini tannarxdagi ulushi;

Mehnat unumdorligining o'sishi

$$\Delta T = \frac{100(a - b)k}{100 + a}$$

Bu yerda:

$a$ —mehnat unumdorligini o'sishi, %;

$b$ —ish haqqining o'sishi, %;

$k$ —bazis davridagi mahsulot tannarxida ish haqqining ulushi, %

## Namunaviy masalalar yechimi bilan

### 60-masala.

Birlashma bo'yicha ko'mir qazib chiqarish hajmi 6,9 mln.t. Ulardan ochiq usulda 25,8 % qazib olingan. Ko'mir qazib olishning sarf -xarajatlari 4-jadvalda keltirilgan.

Ochiq usulda qazib olishning sarf-xarajatlari umumiylarining 12,5% ni tashkil qiladi.

Quyidagilarni aniqlash kerak

- 1.1t ko'mir qazib olishning umumiylarini tannarxi
- 2.Ko'mir qazib olish tannarxini umumiylashtirish strukturasiini tarkibini

- 3.Ochiq va yer osti usullarida ko'mir qazib olishning tannarxi

4 - jadval

| Xarajatlar elementlari | Umumiylarini<br>xarajatlar mln.<br>so'm | 1t ko'mir qazib<br>olishni harajatlari | Xarajatlar tarkibi,<br>umumiylashtirish<br>nisbatan, % |
|------------------------|---|--|--|
| Materiallar            | 10600                                   | 1540                                   | 16,0   |
| Yoqilg'i               | 660                                     | 100                                    | 1,0  |
| Elektroenergiya        | 3310                                    | 480                                    | 5,0  |
| Ish haqqi              | 29800                                   | 4320                                   | 45,0   |
| Ish haqqiga ajratmalar | 2720                                    | 390                                    | 4,1  |
| Amartizatsiya          | 11260                                   | 1630                                   | 17,0   |
| Boshqa pul harajatlari | 5960                                    | 860                                    | 9,0  |

|   |       |      |      |
|---|-------|------|------|
| Mahsulotni ishlab chiqarish tannarxi              | 64310 | 9320 | 97,1 |
| Ishlab chiqarishga taalluqli bo`lмаган xarajatlar | 1940  | 280  | 2,9  |
| Mahsulotning to`la tannarxi                       | 66250 | 9601 | 100  |

Yechimi

1. Ochiq usulda qazib olingan ko`mirning ulushini topamiz.

$$\frac{6900000 \cdot 25,8}{100} = 1780200 \text{ t}$$

2. Ochiq usulda qazib olingan ko`mirning umumiylarini aniqlaymiz.

$$\frac{6625000000 \cdot 12,5}{100} = 8281250000 \text{ so`m}$$

3. Ochiq usulda qazib olingan 1tonna ko`mirning tannarxini topamiz.

$$8281250000 : 1780200 = 4651,8 \text{ so`m}$$

Ko`mirni yer osti usulida qazib olishning tannarxini topamiz.

$$T = \frac{6625000000 - 8281250000}{6900000 - 1780200} = 11320 \text{ so`m}$$

### 61-masala:

Shaxtaning yillik ko`mir qazib chiqarish hajmi 850 ming t. shundan 6,8 ming t.si shaxtaning o`z ehtiyojlari uchun ishlataladi. Shaxta qo`shni korxonaga 345mln so`mlik xizmat ko`rsatdi. Shaxtaga ko`mir qazib chiqarish va uni sotish xarajatlari 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

| Xarajatlar elementlari                         | Umumiy xarajatlar, mln. ming, so`m | 1t ko`mir xarajatlari, so`m | Xarajatlar tarkibi jamiga nisbatan, % |
|--|------------------------------------|-----------------------------|---------------------------------------|
| Materiallar                                    | 4614                               | 4855,3                      | 41,8                                  |
| Yoqilg`i                                       | 79                                 | 90                          | 0,8                                   |
| Elektroenergiya                                | 444                                | 520                         | 4,5                                   |
| Ish haqi                                       | 2465                               | 2889,1                      | 25                                    |
| Ijtimoiy sug`urtaga ajratmalar                 | 592                                | 693,8                       | 6,0                                   |
| Amartizatsiya                                  | 1580                               | 1851,8                      | 16                                    |
| Boshqa pul harajatlari                         | 591                                | 700                         | 6,0                                   |
| Ishlab chiqarish harajatlari                   | 9574                               | 11260                       | 97,1                                  |
| Ishlab chiqarishga taaluq bo`limgan xarajatlar | 286                                | 340                         | 2,9                                   |
| To`la tannarxi                                 | 9860                               | 11600                       | 100                                   |

Quyidagilarni aniqlash kerak

1. Ko`mir qazib olish tannarxini.
2. Ko`mir qazib olishning to`liq tannarxi
3. 1tonna ko`mirning tannarxi
4. Ko`mirni sotish hajmini
5. Tovar mahsulotining to`la tannarxi
6. Yalpi mahsulotning tannarxi

Yechimi:

1. Ishlab chiqarish tannarxi

$$9860 - 286 = 9574 \text{ mln so`m}$$

2. Shaxtaning o`z ehtiyoji uchun ishlatiladigan ko`mirning umumiy harajatlari

$$6800t \cdot 11260 = 76568,0 \text{ t ming so`m}$$

3. Sotiladigan ko`mirning tannarxi

$$9574000 - 76568 = 9497,4 \text{mln so`m}$$

4. Tovar mahsulotining to`la tannarxi  
 $9497,4+286+345=10128,4$  mln so`m
5. Yalpi mahsulotning tannarxi

## 62-masala

Razrezdagи transformatorlarning belgilangan quvvati 2500 kva, yuqori kuchlanishli elektrodvigitellarning umumiyl quvvati 2300kvt (*bunda cos f = 0,9 va k.p.d = 0,9*) 1kva belgilangan quvvat uchun bir yillik to`lov 3100 so`m. Elektr-energiyaning 1kvt.c uchun to`lov 120 so`m. (schyotchik ko`rsatishi bo`yicha).

Razrezda ko`mir qazib chiqarish hajmi 4,7mln t. 1t ko`mir qazib chiqarish bo`yicha elektroenergiya sarfi 4,5kvt.c

Elektroenergiya sarfi elementi bo`yicha 1t ko`mir qazib olish tannarxini aniqlang.

Yechimi:

1. Yuqori voltli elektrodvigatellarning ulangan quvvati

$$W_d = \frac{2300}{0,9 \cdot 0,9} = 2840 \text{ kva}$$

2. Tarmoqga ulangan transfarmatorlar va yuqori voltli elektrdvigitellarning umumiyl quvvati

$$W_{umum} = 2500 + 2840 = 5340 \text{ kva}$$

3. Belgilangan quvvat uchun to`lov

$$T_{b,q} = 5340 \cdot 360 = 19224,0 \text{ ming so`m}$$

4. Foydalilanigan elektr- energiya uchun to`lov

$$T_f = 4700000,0 \cdot 4,5 \cdot 120 = 2538 \text{ ming so`m}$$

5. Elektroenergiya bo`yicha yillik to`lov

$$19224,0 + 2538000 = 2552240 \text{ ming so`m}$$

6. 1t qazilmaning elektr-energiya elementi bo`yicha tannarxi

$$2552240 : 4700 = 5682,7 \text{ ming so`m}$$

### **63-masala:**

Shaxtada hisobot yilida 800 ming t ko'mir qazib chiqarilgan. Rejalashtirilayotgan yilda ko'mir qazib chiqarish hajmini 950 ming t ga yetkazish mo'ljallanmoqda. Hisobot yilida 1t ko'mir qazib chiqarishning tannarxi 7800 so'mni shu jumladan shartli-o'zgarmas harajatlar 3590 so'mni tashkil etdi.

1. Qazib chiqarish hajmining o'sishi hisobiga ko'mir tannarxining pasayish darajasini (% larda) aniqlang.
2. Rejalashtirilayotgan yildagi 1t ko'mirning tannarxini toping.

Yechimi:

1. Reja bo'yicha ko'mir qazib chiqarish hajmini oshishini ya'ni ko'mir qazib chiqarishni o'sish koeffisenti

$$K = \frac{950000}{800000} = 1,19$$

2. Hisobot yilida tannarxdagi shartli o'zgarmas harajatlar ulushini topamiz.

$$B = \frac{3590}{7800} = 100 = 46\%$$

3. Ko'mir qazib chiqarish tannarxini pasayish ko'rsatkichi (%larda)

$$-T_c = B - \frac{B}{K} = 46 - \frac{46}{1,19} = 7,3\%$$

Reja bo'yicha 1t ko'mir qazib chiqarish tannarxi

$$T_{rej} = 7800 - \frac{7800 \cdot 7,3}{100} = 7230,6 \text{ so'm}$$

### **64-masala:**

Karyerda ruda qazib chiqarish tannarxi 1700 so'm; shu jumladan portlovchi materiallarga harajatlar 200 so'm.

Reja bo'yicha portlovchi materiallar harajatlari 6%ga pasayishi mo'ljallangan.

1. Ruda qazib olish harajatlari rejaviy yilda pasayish darajasini toping.

2. Reja yilda 1t ruda qazib chiqarish tannarxini aniqlang.

Yechim:

1. Ruda tannarxidagi portlovchi materiallarning ulushi.

$$Y_j = \frac{200}{1700} : 100 = 11,8\%$$

2. Ruda tannarxini pasayishi quyidagicha bo`ladi.

$$-\Delta T = \frac{11,8 \cdot 6}{100} = 0,71\%$$

3. Reja yilida 1t ruda qazib olish tannarxini aniqlaymiz.

$$Trej = 1700 - \frac{1700 \cdot 0,71}{100} = 1688 \text{ so`m}$$

### 65-masala:

1t ko`mir qazib chiqarishning amaldagi tannarxi 9600 so`m. Shu jumladan ochiq usulda qazib olish tannarxi 5200 so`m. Ko`mirning ochiq usulda qazib olishning ulushi 35%. Ko`mirning ochiq usulda qazib olishni oshirish va rejaviy yilda uni hajmini 40% ga yetkazish mo`ljallangan. Reja yilda 1t ko`mir qazib olish tannarxini va reja yilida 1t ko`mir tannarxini pasayishini aniqlang.

Yechim:

1. Yer osti usulida 1t ko`mir qazib olish tannarxi

$$T_{yer\ osti} = \frac{9600 \cdot 100 - 35}{65} = 12000 \text{ so`m}$$

2. 1t ko`mirni rejaviy tannaxi

$$T_{rej} = \frac{5200 \cdot 40 + 12000}{100} = 9280 \text{ so`m}$$

3. Reja bo`yicha 1t ko`mir tannarxining pasayishi

$$\Delta T_{pasy} = \frac{9600 - 9280}{9600} = 3,3\%$$

### **66-masala**

Konchilik korxonasida yil davomida 720 ming t komir qazib chiqarilgan. Shundan 25% ochiq usulga to`g`ri keladi. Ko`mir qazib chiqarishning umumiy sarf-xarajatlari 50400 mln so`m bolib, ularning 38% ochiq usulda sarflangan. It ko`mirni ochiq usulda qazib olish tannarxini aniqlang.

1. Ochiq usulda ko`mir qazib chiqarish hajmini topamiz.

$$\frac{720000 \cdot 25}{100} = 180000 t$$

2. Sarf xarajatlarni ochiq usulda qazib olishga to`g`ri keladigan qismini aniqlaymiz.

$$\frac{50400000000 \cdot 38}{100} = 191520 mlrd so`m$$

3. It ko`mirni qazib olish tannarxini aniqlaymiz.

$$191520 : 180000 = 106400 so`m$$

### **Yechish uchun masalalar**

### **67-masala**

Yillik rejaning mehnat hajmi 480 000 meyori soatni tashkil qiladi. Meyorning ortig`i bilan bajarish koeffisenti – 1,2 ga teng. Yillik foydali ish vaqtি fondi – 1878 soat. Ishchilar soni topilsin.

### **68-masala**

Mexanika sexida 10 nafar texnik nazoratchi mo`tadil ish sharoitida 2-razryad bo`yicha ishlangan. Bitta nazoratchining yillik ish vaqtি fondi 270 kunini tashkil qilgan. Smena davomiyligi 7 soat. Jami nazoratchilarning yillik tarif ish haqi fondi topilsin.

## **69-masala**

Sex ishchilarining yillik tarif ish haqi fondi 400 mln. so`m. Rejalashtirilgan o`rtacha yillik mukofot 10%. Smena davomiyligi 7 soat. Ishlab chiqarish jarayoni toxtovsiz tashkil qilingan. Sex ishchilarining soatli ish xaqi fondi

## **70-masala**

Boyitish fabrikasi maydalash sexi ishchilarni kunlik ish xaqi fondi – 48078,8 so`m. Ish vaqtining yillik samarali fondi – 277 kun. Mehnat tatilining o`rtacha davomiyligi – 24 kun. Davlat va jamoat xizmati uchun to`lanadigan pul 2700 so`mni tashkil qiladi. Sex ishchilarining yiilik ish xaqi fondini aniqlang.

## **71-masala**

Konchilik korxonalarida mahsulot chiqarish reja bo`yicha o`tgan yilga nisbatan 12 ga, ishlovchilar soni esa 1,8 % ga ortish kerak. Shu korxonaning rejada ko`rsatilgan mehnat unumdarligining o`sishi topislin.

## **72-masala**

Korxonada maxsulot chiqarish miqdori 10% ga, ishlovchilar soni 1,4% ga ortish kerak. Ishlab chiqarish hajmi ko`payish natijasida mehnat unumdarligining ortish meyori topilsin.

# **6. KORXONA HODIMLARI SONI, ISH TARTIBI VA MEHNAT UNUMDORLIGI.**

## **6.1. Ishchilar soni va mehnat unumdarligini aniqlash bo`yicha uslubiy ko`rsatmalar.**

Ma'lumki, konchilik korxonalarida ish tartibi ikki xil bo'lishi mumkin – uzlukli va uzlucksiz ish rejimlari.

Yillik uzlucksiz ish tartibi, asosan, konlarni er osti usulida qazib oluvchi kichik, konchilik korxonalarida qo'llaniladi. Bu rejimda korxona, uchastka va sexlar haftada 5 yoki 6 kun ishlaydi, 1 yoki 2 kun dam olish kuni bo'ladi.

Uzluksiz ish tartibi katta unumdorlikka ega bo‘lgan shaxta va karerlarda qo‘llaniladi. Bu rejimda yilning 360 yoki 356 kuni ish kuni bo‘lib, 5 kun yoki 9 ta bayram kunlari ta’mirlash ishlariga ajratiladi.

Korxonalarning bir yillik ish kunlari quyidagi ifodada aniqlanadi:

$$IK=365-DK-BK, \text{ kun.}$$

DK – dam olish kunlari (6 kun ish haftasida DK=52, ish rejimida DK=0).

BK – bayram kunlari (BK=9 kun).

Ishchilarining bir yildagi chiqish kunlari quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$KI=(365 - DK - BK - OK) * 0,96, \text{ kun}$$

OK – ishchilarining yillik ta’til kunlari 24,36 va 48 kun bo‘lishi mumkin.

0,96 – ishchining kunlarni davlat vazifalarini hisobga olish koefitsenti.

Ishchilarining ro‘yxat koefitsienti quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$K_{ro'yxat} = \frac{365 - n_{bay} - n_{dam}}{(365 - n_{bay} - n_{dam} - n_{tat})} * 0,96$$

Bunda:

$n_{bay}$ -yildagi bayram kunlar soni ;

$n_{dam}$  -yildagi dam olish kunlar soni ;

$n_{tat}$  -ishchining yil davomidagi ta’til kunlar soni.

Korxonalarda ishchilar tarkibi ikkiga ajraladi – ishga chiqish tarkibi va ro‘yxat tarkibi.

Ishga chiqish tarkibi – bu bir sutka davomida bevosita ish joylarida ishlaydigan ishchilar soni. Bular ishga chiqish tarkibidan ro‘yxat koefitsenti miqdoricha kishi bo‘ladi va quyidagicha aniqlanadi:

$$N_{ro'yxat} = N_{i.ch.t.} * K_{ro'yxat} / \text{sutka}$$

$N_{i.ch.t.}$  ishga chiqish tarkibidagi ishchilar soni, kishi/sutka

Konchilikka ishga chiqish usuli ikki tarkibda aniqlanadi:

1.Mehnat me’yori bo‘yicha hisoblash usuli.

2.Ishchilarni joy-joyigacha xizmat ko'rsatish me'yori bo'yicha taqsimlash usuli.

Birinchi usulda ishbay ish haqi oladigan ishchilar soni aniqlanadi:

$$N_{i.ch.t.} = \frac{Q_{sut}}{M_m \cdot K_{m.b}}$$

$M_m$  - ishchilarga ma'lum mutaxasislik bo'yicha bir smenada bajarilishi lozim bo'lgan mehnat me'yori, tegishli birliklarda.(t/m);

$K_{m.b}$  – mehnat me'yorini bajarish koeffitsenti.

Ish me'yorini bajarish koeffitsenti quyidagicha aniqlanadi:

$$N_{M.b} = \frac{P_{sm}}{M_T}$$

Bunda:

$P_{sm}$  – ishchining smenadagi mehnat me'yori.

## 6.2. Namunaviy misollar yechimi va yechish uchun masalalar

### 73 masala

Kovjoyda ishlaydigan ishchining yil davomidagi ta'til kunlari soni 24 yoki 36 ish kun

Korxona hafta davomida besh va olti kun uzlukli hamda uzluksiz ish tartibi bo'yicha ishlaydigandagi ro'yxat tarkibi koeffitsentini aniqlang.

#### Yechimi

Korxona uzlukli ish tartibida ishlagandagi ro'yxat koeffitsenti.

$$K_{ro.y} = \frac{365-8-52}{(365-8-52-36)0,96} = 1,18$$

$$K_{ro.y} = \frac{365-8-52}{(365-8-104-36)0,96} = 1,45$$

Korxona uzluksiz ish tartibida ishlagandagi ro'yxat koeffitsiyenti

$$K_{ro'y} = \frac{365-8-52}{(365-8-52-36)0,96} = 1,38$$

$$K_{ro'y} = \frac{365-8-52}{(365-8-104-36)0,96} = 1,7$$

#### **74-masala.**

Shaxtada yiliga 120 ming t. ko‘mir qazib chiqariladi. Ishchilarning o‘rtacha yillik ro‘yxat soni 1530 ta. Bir ishchi bir oyda o‘rtacha 22 kun ishga chiqadi.

##### Topish kerak:

1. Ishchining smenalik va bir oylik mehnat unumdorligini.
  2. Ko‘mir qazib chiqarishning mehnat talablilagini  
Yechimi.
- Ishchining oylik mehnat unumdorligi

$$M_{oy} = 120000 : 1530 = 78,4 t \text{ Ishchining smenalik mehnat unumdorligi}$$

$$M_{sm} = \frac{120000}{130 \cdot 22} = 3,57 T \text{ yoki } 78,4 : 22 = 3,56 t \text{ ko‘mir qazib chiqarishning mehnat talabliligi}$$

$$M_{talab} = \frac{1530 \cdot 22}{120000} 1000 = 280,5 - 1000 t \text{ ko‘mir qazib chiqarishga kishi-smena}$$

**75- masala.** Konchilik korxonasida yil davomida 7350 ming t ruda qazib chiqariladi va uni boyitib 4215 ming t. konsentrat olindi. Bir tonna konsentratning narxi 83 ming so‘m. Kondagi ishchilarning shtat bo‘yicha o‘rtacha soni 1225 ta. Shundan 874 kishi ruda qazishda ishtirok etadi. Ishlovchilarning yil davomida o‘rtacha 272 kun ishga chiqadilar.  
Aniqlash kerak.

- rudnik bo‘yicha ishchilarning oylik va smenalik mehnat unumdorligining natural va qiymat ko‘rsatkichlarini.
- ruda qazib chiqarishda ishlovchining smenalik va oylik mehnat unumdorligini.

### Yechimi.

1. Rudnik bo‘yicha bir ishlovchining smenadagi mehnat unumdorligi.  
Smena bo‘yicha

$$K_{u.sm} = \frac{4215000}{12250272} = 12,65 t$$

Ishchining qiymat ko‘rsatkichdagi ish unumdorligi

$$M_{u.sm} = 12,65 \cdot 83000 = 1050000 \text{ so'm}$$

Bir oylik

$$M_{u.oy} = \frac{4215000}{1225 \cdot 12} = 286,7 t$$

$$M_{u.oy} = 286,7 \cdot 83000 = 16600 \text{ ming so'm}$$

2. Ruda qazib chiqarishdagi bir ishlovchining mehnat unumdorligi.  
Smena bo‘yicha

$$K_{u.sm} = \frac{7350000}{874 \cdot 272} = 30,9 t$$

Oylik bo‘yicha

$$M_{u.oy} = \frac{7350000}{874 \cdot 12} = 7013 t$$

**76 - masala.** Konchilik korxonasida ko‘mir qazib chiqarish hajmi rejaga nisbatan 3,6% ga oshdi. Asosiy ishchilarning soni ham 3,6% ga, yordamchi ishchilarning soni 1,5% ga oshdi, qolgan boshqa xodimlarning soni o‘zgarmay qoldi. Reja bo‘yicha asosiy ishchilar soni 520, yordamchi ishchilar-270, qolgan xodimlar soni-150 ta

Korxona bo‘yicha bir ishlovchining mehnat unumdorligini aniqlang.

### Yechimi

Tejalgan ishlovchilar sonini topamiz.

$$T_i = \frac{270(3,6-1,5)}{100} + \frac{150(3,6-0)}{100} = 11 \text{ kishi}$$

Bir ishlovchining mehnat unumdorligini o'sishini aniqlaymiz.

$$\Delta R = \frac{11 \cdot 100}{940 - 11} 1,184\%$$

**77-masala.** Mis rudasini ochiq usulda qazib olish hajmi rudnikda qazib olingan rudaning umumiyligi 80% tashkil etdi. Karyerdagi bir ishlovchining mehnat unumdorligi-5800 t ni, yer osti usulidagi ishchining 2350 t ni tashkil etdi.

Ochiq usulda ruda qazib chiqarish hajmi 90% gacha oshgandagi ishlovchining mehnat unumdorligini o'sishini toping.

$$M_{u.o'sishi} = \left( \frac{\frac{80}{5800} + \frac{20}{2350}}{\frac{90}{5800} + \frac{10}{2350}} - 1 \right) 100 = 12,7\%$$

**78- masala** Geologiya va konchilik uskunalarini ta'mirlovchi zavoddagi ishlovchilarning o'rtacha soni - 935 kishi. Zavodning yillik yalpi mahsuloti 10320 mln. So'm. Shu jumladan xom ashyo va materiallar 3480; tashqaridan olinadigan texnologik yoqilg'i-325; elektroenergiya-132, ehtiyyot qismlar va buyumlar-295; asosiy fondlar amortizatsiyasi-780.ni tashkil qiladi.

Zavod bo'yicha shartli-sof mahsulot bo'yicha bir ishchining mehnat unumdorligi topilsin.

### Yechimi

Zavodning shartli - sof mahsulot ishlab chiqarish hajmini topamiz.

$$Q_{sh.sof.m} = 10320 - (3480 + 325 + 132 + 295) = 6088 \text{ ming so'm}$$

Bir ishlovchining shartli - sof mahsulot ishlov chiqarish hajmini topamiz.

$$M_{o_{sh.sof.m}} = \frac{6088000}{935} 6511,2 \text{ ming so'm}$$

**79-masala** Geologiya va konchilik korxonasining elektrmexanika ustaxonasida ehtiyot qismlarni tayyorlashni mehnat talabliligini har xil. Ishchilarining rejadagi soni, amalda - 21 ta. O'rtacha oylik ishga chiqish kunlari rejada - 23, amalda 23,3 kun.

Ayrim ehtiyot qismarini tayyorlashning me'yoriy va amaldagi mehnat talablilik ko'rsatkichlari 6-jadvalda keltirilgan.

6-jadval

| Ehtiyot<br>qismning<br>turi(buyum<br>ning №) | Buyumlarni<br>oylik soni |            | 1-buyumni<br>tayyorlashn<br>i mehnat<br>talabli-ligi,<br>me'yor-s | Ehtiyot<br>qismning<br>turi(buyu<br>mnning №) | Buyumlarni<br>oylik soni |            | 1-buyumni<br>tayyorlashn<br>i mehnat<br>talabli-ligi,<br>me'yor-s |
|--|--------------------------|------------|---|---|--------------------------|------------|---|
|  | reja                     | amald<br>a |   |   | reja                     | amal<br>da |   |
| 1  | 10                       | 115        | 4,0   | 6   | 130                      | 154        | 6,8   |
| 2  | 120                      | 105        | 6,5   | 7   | 75                       | 80         | 5,2   |
| 3  | 80                       | 94         | 3,0   | 8   | 150                      | 135        | 10,0  |
| 4  | 40                       | 50         | 4,3   | 9   | 113                      | 120        | 11,4  |
| 5  | 90                       | 70         | 15,0  | 10  | 106                      | 110        | 2,0   |

### Topish kerak.

1.Elektrmexanika ustaxonasi oylik rejim bajarilishini foizlarda aniqlash.

2.Bir ishchining reja bo'yicha va amaldagi smenalik mehnat unumdorligini

### Yechimi.

Ish birligi sifatida ehtiyot qism va buyumlarni tayyorlashda eng kam mehnat talab qiladigan turini qabul qilamiz. Bu holda shartli o'lchov birliklaridagi ish hajmi quyidagicha bo'ladi.

Reja bo'yicha ish hajmi

$$Q_{rej} = 100 \frac{4}{2} + 120 \frac{6,5}{2} + 80 \frac{3}{2} + 40 \frac{4,3}{2} + 90 \frac{15}{2} +$$

$$+ 130 \frac{6,8}{2} + 75 \frac{5,2}{2} + 150 \frac{10}{2} + 113 \frac{11,4}{2} + 106 \frac{2}{2} = 36081 \text{ buyum}$$

Amaldagi ish hajmi

$$\begin{aligned}
 Q_{rej} = & 115 \frac{4}{2} + 105 \frac{6,5}{2} + 94 \frac{3}{2} + 50 \frac{4,3}{2} + 70 \frac{15}{2} + \\
 & + 154 \frac{6,8}{2} + 80 \frac{5,2}{2} + 135 \frac{10}{2} 120 \frac{11,4}{2} + 110 \frac{2}{2} = 354535 \text{ buyum}
 \end{aligned}$$

Elektromexanika ustaxonasining oylik ish haqini bajarish foizini topamiz

$$\frac{Q_{amal}}{Q_{real}} 100 = \frac{354535}{36081} 100 = 98,2\%$$

## 7. KORXONALARING FOYDA VA RENTABELLIGI

### 7.1. Foyda va rentabellikni hisoblash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

Yalpi daromad – bu ko'rsatkich korxona faoliyatining pirovard natijasini ifodalaydi. U yalpi tushum (kirim) dan mahsulot ishlab chiqarish va sotishning barcha harajatlarini (ish haqidan) tashqari chegirib tashlash orqali aniqlanadi.

Foyda quyidagi ko'rinishlar bo'yicha farqlanadi:

Yalpi foyda – bu korxona daromadining bir qismi bo'lib, undan barcha harajatlarni chiqarib tashlagandan so'ng korxona ixtiyorida qoladigan qismi.

Shuningdek mahsulot sotish, balans foyda va sof foyda ko'rinishlari farqlanadi:

Mahsulot sotishdan olinadigan foyda korxona jamg'armasining asosiy shaklidir. U quyidagi ifoda orqali aniqlanadi.

$$SF = V - T_1 = (B - T_2)$$

Bu yerda:

SF – mahsulot sotishdan olinadigan foyda;

V – mahsulot sotishdan keladigan tushum;

$T_1$  – sotiladigan umumiyl mahsulotning to'la tannarxi;

B – Bir birlik mahsulotni sotish bahosi;

$T_2$  – Bir birlik mahsulotning to'la tannarxi;

Balans foyda BF – buxgalteriya balansida aks ettiriladigan korxonaning barcha turdag'i ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatidan

hosil bo‘ladigan foyda summasidan iborat bo‘ladi. U quyidagi ifoda orqali aniqlanadi.

$$BF = SF + F_{\text{boshqa f}} + F_{\text{s.t.e}} + Z$$

Bu yerda:

$SF_{\text{boshqa f}}$  – boshqa ishlar va ulardan tashqari korxona, tashkilotlarga ko‘rsatiladigan xizmatlardan keladigan foyda;

$F_{\text{s.t.e.}}$  – Korxonaning mahsulot sotish faoliyati bilan bog‘liq bo‘limgan manbalardan keladigan foyda (korxonaning ortiqcha uskunalari, moddiy resurslarini mahsulot sotishdan keladigan tushum);

$Z$  – uy-joy kommunal xo‘jaligi va madaniy – maishiy xo‘jaliklari faoliyatidan ko‘riladigan zarar.

Sof (hisobiy) foyda korxona ixtiyorida qoladigan balans foydaning bir qismi.

$$Sof = BF (Sf + QQS + S_{\text{aksiz}} + S_{\text{mol -mulk}}) - K$$

Bu yerda:  $S_f$  – me’yor bo‘yicha balans foydadan olinadigan soliq;

$S_{\text{aksiz}}$  – aksiz solig‘i;

$S_{\text{mol -mulk}}$  – mol-mulk solig‘i;

$K$  – bank kreditlariga foizlarda to‘lanadigan mablag‘.

Korxona faoliyati foydadan tashqari rentabellik ko‘rsatkichi bilan baholanadi.

Amaliyotda ko‘proq rentabellikning quyidagi ko‘rinishlaridan foydalaniladi;

- ishlab chiqarish fondlarining qiymatiga nisbatan rentabellik;
- mahsulot tannarxiga nisbatan rentabellik.

Korxonalar ishlab chiqarish fondlarining umumiy rentabelligi quyidagi ifoda orqali aniqlanadi.

$$R_{\text{umum}} = \frac{P_{\text{balans}}}{F_{\text{asosiy}} + F_{\text{aylanma}}} \cdot 100\%$$

Bu yerda:  $P_{\text{balans}}$  – balans foyda;

$F_{\text{asosiy}}, F_{\text{aylanma}}$  – asosiy va aylanma fondlari o‘rtacha yillik qiymati.

Korxona ishlab chiqargan alohida mahsulot turlari rentabelligi.

$$R_m = \frac{P_i}{xarajatlar \text{ (tannarx)}} \cdot 100\%$$

Bu yerda:  $P_i$  – mahsulot turidan olinadigan foyda;

## 7.2. Namunaviy masalalar yechimi bilan va yechish uchun masalalr

**80 masala.** O'tgan yilda 720 000 ming t ko'mir sotgan. Jami sotilgan ko'mirning tannarxi 58 000 mln so'm, 1 tonna ko'mirni sotish 96 000 ming so'm.

Aniqlash kerak:

1. Shaxtaning ko'mir sotishdan olinadigan foydani
2. 1 tonna sotilgan ko'mirdan olinadigan foydani

Yechimi:

- Shaxtaning 720 000 ming tonna ko'mirni sotishdan olinadigan foyda.  

$$96000 \cdot 720000 - 58000 \text{mln so'm} = 11120 \text{mln so'm}$$
- 1 tonna ko'mir sotishdan olinadigan foyda  

$$p_{lt} = 58000 \text{mln so'm} : 720000 = 80555 \text{so'm}$$

**81-masala** Ikkita konchilik korxonalarining omborlarida rejalahtirilayotgan yil boshida 1,3 ming tonna mis rudasi qolgan. Undan 0,6 ming tonnasi iste'molchilarga jo'natilgan. Ularga haq to'lash muddati o'tgan yilda edi.

Reja bo'yicha 250 ming tonna tovar ruda qazib chiqarish mo'ljallangan. Me'yor bo'yicha rejalahtirilgan yil oxirida 2,4 ming tonna tayyor ruda zaxirasi bo'lishi kerak.

Sotishga rejalahtirilgan biroq, haqi to'lanmagan rуданing hajmi 0,85 ming tonna. Tovar mahsulotining o'rtacha tannarxi 6000 so'm, sotish narxi esa, 7900 so'm.

Aniqlash kerak:

1. Yil bo'yicha mahsulot sotish hajmini natural va qiymat ko'rsatkichlarini.
2. Jami va 1 tonna mahsulotni sotishdan olinadigan foyda miqdorini.

Yechimi:

1. Rejalahtirilayotgan yildagi sotiladigan tovar mahsulot hajmini natural va qiymat ko'rsatkichlarini topamiz.

Natural ko'rsatkichda

$$Q \text{ yil sotish hajmi} = 1300 + 600 + 250 \text{ 000} - 2400 - 850 = 248650 \text{ tonna}$$

Qiymat ko'rsatkichda Q yil sotish =248650 7960=1964,3 mln so'm

2. Tovar mahsulotini sotishdan olinadigan foyda:

- Yillik tovar hajmi bo'yicha (7900-6000) 248650 tonna =472 435 000 so'm
- 1 tonna mis rudasidan olinadigan foyda

$$p_{1T} = 7900 - 6000 = 19000 \text{ so'm}$$

**82-masala.** Hisobot yilida 1750 ming tonna rudani 12 900 so'mdan sotildi. Rudani tannarxi 10 300 so'm. Undan tashqari boshqa tashkilotlarga 15300 ming so'mlik (ularga sarf xarajatlar 12 200 ming so'm bo'lgan) xizmat ko'rsatildi.

Boshqa tashkilot va korxonalarga to'langan jarimalar va pensiyalar 4120 ming va boshqa tashkilotlardan olingan mablag' 3750 ming so'm. Uy-joy kommunal xo'jaligi, madaniy-maishiy tashkilotlar va muddatidan oldin uskunalarini hisobdan chiqarish natijasida 17 600 ming so'mlik zarar ko'rildi.

Aniqlash kerak:

1. Tovar mahsulotini sotishdan olingan foydani
2. Korxonani yillik balans foydani.
- Tovar mahsulotini sotishdan olingan foyda.

$$Pt.m. = (12900 - 10300) 1750000 = 4550000 \text{ ming so'm}$$

- Korxonaning yillik balans foydasi

$$4550000 + (15300 - 122000) + 3750 - 4120 - 1760 = 4535130 \text{ ming so'm}$$

**83 - masala** Rudnikda 52 ming tonna mis-rux rudasi qazib olingan. Rudadagi mis miqdori 4,12%, rux 2,04%, oltin gugurt 36,2% 1 tonna rudadagi misni ulgurji narxi 27000, ruxniki 100 ming so'm, oltin gugurtniki 5600 so'm tonna. Konda rudani qazib olish xarajatlari rudadagi komponentlar qiymatini 65% tashkil etadi.

Olingan mahsulotlar qiymatini va foyda miqdorini toping.  
Yechimi:

- rudadagi foydali komponentlarning miqdorini topamiz, t:
  - mis  $(52000 \cdot 4,21) : 100 = 21892$ ; rux  $(52000 \cdot 2,04) : 100 = 18824$ t
  - qazib olingan rudadagi komponentlar qiymatini topamiz.

$$59108+106080+1054148=166142,148 \text{ ming so'm}$$

- qazib olingan rudani sarf-xarajatlarini topamiz:

$$166242 \cdot 0,65 = 1080574 \text{ ming so'm}$$

Rudadagi foydali komponentlardan olinadigan foyda miqdorini topamiz:

$$662421 - 108057 = 581851 \text{ ming so'm}$$

### **7.3. Korxonalarni ishlab chiqarish rentabelligi**

- Sanoatda rentabellik ikki ko‘rinishidan foydalaniladi:
- Mahsulot rentabelligi
- Ishlab chiqarish fondlarining rentabelligi.

Mahsulot rentabelligi (Rm) mahsulotni sotishdan tushadigan foyda bilan uni ishlab chiqarish va sotish sarf-harajatlari (tannarx) orasidagi bog‘liqlikni aks ettiradi, u joriy xarajatlarning har bir so‘miga to‘g‘ri keladigan foydaning nisbiy miqdorini ko‘rsatadi. Bunday ko‘rsatkichning qulayligi shundan iboratki, uni barcha mahsulotlar (sotilgan va ishlab chiqarilgan) bo‘yicha hamda ayrim mahsulotlarning tannarxi aniq bo‘lganligi sababli ularni turlari bo‘yicha aniqlash mumkin. Bunda quyidagi formuladan foydalaniladi.

$$P_m = \left[ \sum_{i=1}^n Q_i (B_i - T_i) / \sum_{i=1}^A Q_i - T_1 \right] \cdot 100$$

yoki

$$P_{mi} = [(B_i - T_i) / T_i] \cdot 100$$

Bu yerda:  $Q_i$  – ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi,  $B_i$  – bahosi,  $T_i$  – tannarxi.

Biroq bu usul qulayligiga qaramay shu mahsulotni yaratishda faol qatnashgan ishlab chiqarish fondlari hajmini o‘zida aks ettirmaydi. Shuning uchun sanoatda korxonaning rentabelligini foyda miqdorini ishlab chiqarish fondlarini o‘rtacha yillik miqdoriga nisbati asosida aniqlash usuli ham qo‘llaniladi. Ishlab chiqarish fondlarining rentabelligi (Rf) quyidagicha aniqlanadi:

$$P_f = [P_b / (F + A_n)] \cdot 100$$

Bu yerda: - balans foyda miqdori, so`m;  
 F – asosiy fondlarni yillik o‘rtacha miqdori, so`m;  
 A<sub>n</sub> – aylanma mablag‘larning meyorlanuvchi qismi, so`m.

**84-masala.** Korxona hisobot yilida 2 mlrd. so`m foyda oldi. Bu mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarf-xarajatlar 8,0mlrd. so`mni tashkil etdi. Korxona asosiy ishlab chiqarish fondlarining o‘rtacha yillik qiymati 12,0mlrd. so`m, aylanma fondlarining o‘rtacha qoldiq qiymati 2 mlrd. so`m. Korxona bo‘yicha mahsulot rentabelligini va ishlab chiqarish fondlarining rentabelligini aniqlang.

Yechimi:

a) Ishlab chiqarish fondlarining rentabelligini aniqlaymiz.

$$P_f = [P_b (F_{as} + F_{ay})] \cdot 100 = [20 : (12 + 2)] = 14,3\%$$

b) Mahsulot rentabelligini aniqlaymiz.

$$P_m = [(P_b : X)] \cdot 100 = (2000000000 : 8000000000) \cdot 100 = 25\%$$

### 85-masala

7-jadval ma’lumotlari asosida rejaviy davrda korxona ishlab chiqargan mahsulot tarkibini o‘zgarishini rentabellik darajasiga ta’sirini aniqlang.

7-jadval

| Mahsulot turi | Mahsulot tannarxi, (shartli birlikda), t | Mahsulot ishlab chiqarishning yillik hajmi, ming. t |               | Mahsulot narxi (shartli birlikda), t |
|---------------|--|---|---------------|--------------------------------------|
|               |  | Amalda  | Reja bo‘yicha |                                      |
| A             | 50                                       | 200   | 300           | 70                                   |
| B             | 80                                       | 300   | 100           | 92                                   |
| V             | 70                                       | 500   | 400           | 75                                   |
| G             | 100                                      | 100   | 400           | 130                                  |
| D             | 120                                      | 300   | 200           | 140                                  |

Yechimi: mahsulot sotish hisobiga amalda olinadigan foyda, shartli birlikda

mahsulot A  $P_A = (70 - 50) 200 = 4,0;$

mahsulot B  $P_B = (92 - 80) 300 = 3,6;$

mahsulot V  $P_V = (75 - 70) 500 = 2,5;$

mahsulot G  $P_G = (130 - 100) 100 = 3,0;$

mahsulot D  $P_D = (140 - 120) 300 = 6,0;$

Korxonaning umumiy olgan foydasi (amaldagi)

$$P_{umumiy}^f = P_A + P_B + P_V + P_G + P_D = 4,0 + 3,6 + 2,5 + 3,0 + 6,0 = 19,1 \text{ mln so'm}$$

Amaldagi rentabellik

$$P_a = \frac{P_{umum}}{F} 100\% = \frac{19,1}{150} 100\% = 12,73\%$$

Mahsulot sotishdan olingan foyda, mln so'm

mahsulot A  $P_A = (70 - 50) 300 = 6,0;$

mahsulot B  $P_B = (92 - 80) 100 = 1,2;$

mahsulot V  $P_V = (75 - 70) 400 = 2,0;$

mahsulot G  $P_G = (130 - 100) 400 = 12,0;$

mahsulot D  $P_D = (140 - 120) 200 = 4,0;$

Korxonaning umumiy olgan rejaviy foydasi

$$P_{umum}^{rejaviy} = P_A + P_B + P_V + P_G + P_D = 6,0 + 1,2 + 2,0 + 12,0 + 4,0 = 26,2 \text{ mln so'm}$$

Rejaviy rentabellik

$$P_{umum}^{rejaviy} = \frac{P_{umum}}{F} 100\% = \frac{25,2}{150} 100\% = 16,8\%$$

Shunday qilib, mahsulot tarkibini o'zgarishi natijasida foyda 6,1 mln ga teng ( $25,2 - 19,1$ ), rentabellik – 4,07% (mutlaq) o'sdi.

## **Echish uchun masalalar**

### **86- masala**

Razrez yil davomida 690 ming t ko‘mir sotgan. 1 tonna ko‘mirning o‘rtacha ulgurji narxi 29300 so‘m, Realizatsiya qilingan ko‘mirning tannarxi 8800000 ming so‘m bo‘lsa, razrezdagi ko‘mirni realizatsiya qilishdan oldin yillik foydani va 1 tonna ko‘mirni realizatsiya qilishdan olingan foyda topilsin.

### **87- masala**

Konchilik korxonasi tomonidan 15100 mln. so`mlik tovar mahsuloti realizatsiya qilinib, 1370 mln. so`mlik foyda olindi. Boshqa korxonalarga xizmatlar ko‘rsatilshi natijasida 53000 ming so`mlik qo‘sishma foyda olindi. Yil davomida o‘tgan yillardan qolgan 15100 ming so`mlik foyda aniqlandi. Boshqa korxona va tashkilotlardan 8160 ming so`mlik jarimalar undirildi.

Yil davomida korxonaning ko‘makchi xo‘jaliklari 12100 ming so`mlik zarariga ishladi. Boshqa korxonalarga 12100 ming so`mlik jarimalar to‘landi.

Korxonaning yil davomidagi balans foydasi topilsin.

### **88- masala**

Hisobot yilida konchilik korxonasi tomonidan 1690 ming t konsentrat realizatsiya qilindi. 1 tonna konsentratning narhi 131 ming so‘m. 1 tonna tovar konsentratning tannarxi 107 ming so‘mni tashkil etdi. Korxona boshqa tashkilotlarga 149000 ming so`mlik xizmat ko‘rsatdi. Bu xizmatlar tannarxi 131000 ming so‘m. Boshqa korxona va tashkilotlardan olingan jarimalar 36200 ming so`mni tashkil etdi.

### **89–masala**

Korxona asosiy ishlab chiqarish fondlarining o‘rtacha yillik qiymati 2245 mln so‘m. Bundan tijorat banki tomonidan 53000 ming so`mlik kredit ajratilgan edi. Me’yorlashtiruvchi aylanma mablag‘larning o‘rtacha yillik qiymati 62000 ming so‘m. Kredit to‘lovlar esa 3,2 % miqdorida belgilangan. Yillik balans foyda 213000 ming so‘m. Karyerning umumiy rentabelligi ko‘rsatkichi aniqlansin.

## **90- masala**

Boyitish fabrikasida 4100 ming t konsentrat ishlab chiqarish rejalarshirilgan. Haqiqatda esa yil davomida 3980 ming tonna ishlab chiqarildi. 1 tonna konsentratning rejaviy tannarxi 22000 amaldagisi 191000 so`m. 1 tonna konsentratning ulgurji rejaviy narxi 29000 so`mni tashkil etadi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlarining reja bo‘yicha o‘rtacha yillik qiymati 1610000 mln so`m. Aylanma mablag‘larning o‘rtacha reja bo‘yicha qiymati 4130 mln so`m. Rejaviy rentabellikni va umumiy rentabellik darajasiga turli omillarning ta’siri aniqlansin.

## **91- masala**

Shaxtadagi yillik ko‘mir qazib olish hajmi 910 ming t. Shaxsiy ehtiyojlar uchun 53000 t sarflandi. Yil boshidagi ko‘mir qoldiqlari 5,3 ming t, yil oxirida 4,1 ming tonnani tashkil etdi. Yil boshidagi ko‘mir qoldiqlarining tannarxi 11300 so‘m, yil davomidagi qazib olish tannarxi 12960 so‘m. Realizatsiya qilinmaydigan operatsiyalardan olingan daromadlar 69000 so‘m. Zararlar esa 7200 so‘mni tashkil etdi. 1 tonna ko‘mir narxi 19300 so‘m bo‘lsa, tovar mahsulotni sotishdan olingan foyda va shaxtaning yil davomidagi balans foydasi aniqlansin.

# **8. KORXONA FAOLIYATINI REJALASHTIRISH.**

## **8.1. Korxona faoliyati rejasini tuzish**

Firma faoliyati rejasini ishlab chiqish. Buning uchun “Biznes reja”ni tuzish, uning quyidagi bo‘limlarini o‘rganib chiqish kerak:

- Ishlab chiqarish rejasи;
- Marketing rejasи;
- Moliya rejasи;
- Byudjetni tasdiqlash;
- Hodimlarga haq to‘lash rejasи.

### **1.Ishlab chiqarish rejasи**

Ishlab chiqarish deb iqtisodiy resurslar (yer, mehnat, kapital, tadbirdorlik g’oyasi) yordamida moddiy ne’matlar yaratilishiga aytildi. Ishlab chiqarish rejasida ana shular aks ettirilishi kerak. U ma’lum vaqt

mobaynida belgilangan assortiment va sifatida mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish ko'lmini mujassamlashtilishi kerak:

- a) Bir oyda \_\_\_\_\_ dona tovak ishlab chiqarish kerak
- b) \_\_\_\_\_ ishchini qayta tayyorlash kerak
- v) ishlab chiqarish quydag'i jarayonlarga bo'lnadi:

- asosiy ishlab chiqarish;
- yordamchi ishlab chiqarish;
- nazorat;
- transport xizmatlari;
- quritish;
- taxlash;

Har bir jarayonni bajarish uchun ma'lum vaqtni hisoblang, ya'ni:

- ishlab chiqarish \_\_\_\_\_ da boshlanadi
- ishlab chiqarish \_\_\_\_\_ da tugallanadi
- ishlab chiqarish uchun \_\_\_\_\_ brigada kerak
- har bir brigadada \_\_\_\_\_ kishi bo'lishi kerak

## **2. Mahsulot sifati quyidagi talablarga javob berishi kerak**

---

---

---

d) Qanday uskuna va qurilmalar:

- asosiy ishlab chiqarish uchun kerak \_\_\_\_\_
  

---

  
- qo'shimcha ishlab chiqarish uchun kerak \_\_\_\_\_
  

---

c) Amortizatsiya \_\_\_\_\_

e) Aylanma mablag'lar hajmi \_\_\_\_\_

### **2. Marketing rejasi**

- a) tovarni reklama qilishni boshlash vaqtি \_\_\_\_\_
- b) tovarni sotishni boshlash vaqtি \_\_\_\_\_ va tugatish vaqtি \_\_\_\_\_
- v) firma o'z oldiga \_\_\_\_\_ kunda \_\_\_\_\_ dona tovarni \_\_\_\_\_ narxda sotishni  
rejalashtirgan
- g) tovar haridorlari \_\_\_\_\_
- d) tovarni sotish strategiyasi \_\_\_\_\_

- e) qachon, qayerda va kim tomonidan tovarni savdoga chiqarish, savdo qilish o'rgatildi \_\_\_\_\_
- j) sotish harajatlari rejasি \_\_\_\_\_
- z) umumiy harajatlар (reklama, transport xizmatlari, sotish harajatlari va boshqalar)

### **Barcha hisoblarni moliya bo'limiga topshiring**

#### **3.Moliya rejasini tuzish**

Moliyaviy reja yil choraklariga bo'linib, yil uchun tuziladi. U daromad va harajatlар balansidan iborat. Firma daromadлari tarkibga foyda, amortizatsiya, ta'mirlash uchun fondlar kiradi. Yetishmovchiliklar qimmatli qog'ozlar, kredit yoki zayomlar chiqarish yo'li bilan qoplanadi.

Quyidagilarni hisoblang:

- a) Rejalashtirilgan foyda \_\_\_\_\_
- b) Jami kredit \_\_\_\_\_
- c) Aksiyadan olingan tushum \_\_\_\_\_
- d) Asosiy harajatlар tarkibi \_\_\_\_\_

Endi quyidagi jadvalni to'ldiring:

#### **Firmaning moliyaviy rejasи**

| Daromadlar                 |           | Harajatlар                         |           |
|----------------------------|-----------|------------------------------------|-----------|
| Foyda va boshqa daromadlar | Ming so'm | Foydadan soliq va boshqa to'lovlar | Ming so'm |
|                            |           |                                    |           |

#### **4. Byudjetni tasdiqlash**

Byudjetni firma boshqaruvi tasdiqlaydi. Firma boshqaruviга rahbarlikni prezident amalga oshiradi. Vitse-prezident o'z bo'lim (ishlab chiqarish, marketing, kadrlar, moliya) kabilar byudjetni tasdiqlashga tavsiya etadi.

## Firma byudjeti

|    |  |  |
|----|--|--|
| 1  | Yalpi sotuvdan tushgan tushum (soliqni hisobga<br>olmaganda) |  |
| 2  | Mukofotni chegirganda (sotuvdan 10%)                         |  |
| 3  | Sof sotuv  |  |
| 4  | Xom ashyo sarfi  |  |
| 5  | Ish haqqi  |  |
| 6  | Sotilgan tovarlak qiymati                                    |  |
| 7  | Yalpi daromad  |  |
| 8  | Hodimlarni mukofatlash fondi                                 |  |
| 9  | Bank xizmatlari xarajatlari (kredit)                         |  |
| 10 | Savdo xarajatlari (kredit)                                   |  |
| 11 | Barcha qo'shimcha xarajatlari                                |  |
| 12 | Soliqqa tortilguncha sof daromad                             |  |
| 13 | Daromaddan soliq   |  |
| 14 | Soliqqa tortilgandan keyin sof daromad                       |  |

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi doirasidagi barcha korxonalar mahalliy hokimlar tomonidan ro'yhatga olinadi. Buning uchun firma ustavini tayyorlash, quyidagi ma'lumotlarning bo'lishiga e'tibor berish kerak.

Firma yo'naliishi (sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi, savdo va boshqalar)

- firma faoliyati turi
- hodimlar tarkibi
- firmaning ustav fondi
- foydani taqsimlash tarkib va zararni qoplash
- chiqarilayotgan aksiya turlari, ularning soni va boshqalar

Firma ustavi firma boshqaruvi tomonidan tasdiqlanadi

### 8.2. Firma faoliyatining tahlili


Byudjet tasdiqlanib ish chiqarish va marketing rejalari ishlab chiqarilib firma hokimiyat tomonidan ro'yhatdan o'tgach endi o'z faoliyatini boshqarish mumkin. Har bir o'yin qatnashchisiga tegishli mansab taqsimlanadi. Kimdir prezident, kimdir vitse-prezident, kimdir funksional bo'lim rahbari bo'lsa boshqalar hodim bo'ladi.

O'yin qatnashchilarining bir guruhi mahsulot ishlab chiqarsa, yana bir guruhi hisobot olib boradi. Firma faoliyatining samaradorligi har bir hodim, har bir bo'lim, har bir menejer faoliyatiga bog'liq. Boshqaruv

har haftada o‘z majlisini o‘tkazadi, unda vujudga kelgan muammolarni hal qilinadi, tegishli chora tadbirlar ishlab chiqiladi.

### 8.3. Korxonani tashkiliy tuzilishining tahlili

#### Korxonani quydagи tashkiliy tuzilishi xaqida o‘z fikringizni bildiring



Hodimlar

Rahbarlik faoliyatining samarasi qay darajada ekanini bilasizmi? Quyidagi test savollariga holisona javob bersangiz buni bilib olasiz. Buning uchun “ha” yoki “yo‘q” ustunlarining tegishli qatori ro‘parasiga “+” ishorasini qo‘yib chiqing

| Nº | Savollar  | “ Ha” | “ Yo‘q” |
|----|---|-------|---------|
| 1  | Kasbingiz sohasidagi yangi texnologiyani yutuqlarni o‘z faoliyatingizda qo‘llashga harakat qilasizmi?   |       |         |
| 2  | Boshqa kishilar bilan hamkorlik qilishga harakat qilasizmi?   |       |         |
| 3  | Siz hodimlaringiz bilan muloqatda bo‘lganingizda qisqa? aniq va muloyimmisiz?   |       |         |
| 4  | U yoki bu qarorlarni majburlab qabul qilinganligini tushuntirasizmi?  |       |         |
| 5  | Qo‘l ostingizdagi hodimlaringiz sizga ishonishadimi?  |       |         |
| 6  | Maqsad uni bajarish muddatlari usullari ma’suliyatli tomonlarnini muhokama qilish jarayoniga topshiriqni bajaruvchilarning barchasini jalb qilasizmi? |       |         |
| 7  | Taklif beruvchi yoki kamchiliklarni ko‘rsatuvchi  |       |         |

|    |   |  |  |
|----|---|--|--|
|    | tashabbuskor hodimlaringizni rag'batlantirasizmi?   |  |  |
| 8  | Sizni taniydigan va siz bilan muloqatda bo‘ladiganlarning barchasini nomini eslab qola olasizmi?                          |  |  |
| 9  | Ko‘zlangan maqsadni amalga oshirish uchun o‘z hodimlaringizga erkinlik berasizmi?   |  |  |
| 10 | Topshiriqlarning bajarilishini nazorat qilib borasizmi?   |  |  |
| 11 | Qo‘l ostingizda ishlayotganlarga yordam berasizmi yoki faqat ular iltimos qilgandami                                      |  |  |
| 12 | Qoyilmaqom qilib bajargan ishi uchun xodimlaringizga minnatdorchilik bildirirasizmi?                                      |  |  |
| 13 | Kishilarning yaxshi fazilatlarini topishga harakat qilasizmi?   |  |  |
| 14 | Qo‘l ostingizda ishlayotgan har bir hodiminingizning imkonoyatidan qay darajada samarali foydalanishingizni bilasizmi?    |  |  |
| 15 | Qo‘l ostingizda ishlayotgan hodimlaringizning qiziqishi va intilishlarini bilasizmi?                                      |  |  |
| 16 | Diqqat bilan tinglay oladigan bo‘la olasizmi?   |  |  |
| 17 | Hodimlaringizga o‘z o‘rtoqlari oldida minnatdorchilik biladirda olasizmi?   |  |  |
| 18 | Hodimlaringizga holi holda (yakka o‘ziga) tanbeh berasizmi?   |  |  |
| 19 | Yuqori bo‘g’in rahbariga taqdim etgan ma’ruzangizda o‘z jamoangiz ishini maqtaysizmi?                                     |  |  |
| 20 | O‘z qo‘l ostingizdagи ishlayotganlarga ishonasizmi?   |  |  |
| 21 | Ma’muriy va boshqa kanallari orqali olgan axborotlarning barchasini qo‘l ostingizda ishlayotganlarga berishga moyilmisiz? |  |  |
| 22 | Tarmoq korxonaning maqsadlaridan kelib chiqqan holda hodimlaringizga mehnatini ro‘lini tushuntirasizmi?                   |  |  |
| 23 | O‘zingizga ham hodimlaringizga ham ishlarni rejalahtirishga vaqt qoldirasizmi?  |  |  |
| 24 | Hech bo‘lmahanda oldindan bir yil uchun tuzilgan oz’-o‘zini takomillashtirish rejasi bormi?                               |  |  |
| 25 | Vaqt talabiga javob beruvchi kadrlar malakasini oshirish rejasi bormi?  |  |  |
| 26 | Maxsus adabiyotlarni doimo o‘qib turasizmi?   |  |  |
| 27 | Mutaxassislingiz bo‘yicha maxsus adabiyotlarga boymisiz?  |  |  |
| 28 | Sog’lig’ingiz va ishdagi tashvishini o’ylab borasizmi?  |  |  |

## **9. KORXONALAR RAHBARLARI FAOLIYATINI BAHOLASH.**

### **9.1. Rahbarning xislatlarini belgilovchi me'zonlar.**

Boshqaruv madaniyati rahbarning o'ta to'griliginu ifodalaydi va uni yuqori tashkilot va idoralarga noto'g'ri axborotlar berishdan ,qonun-qoidalarni buzishdan o'zini tiyadi. Yigilishlar o'tkazilayotgan vaqtida ularning qatnashchilariga nisbatan muloyim bo'lish kerak, chunki odamlar bunday yig'ilishlarga maqbul boshqaruv qarorlarini yaratish uchun keladilar, bunday qarorlar esa birinchi navbatda, rahbar uchun o'ta muhim hisoblanadi.

Boshqalarni sabr-toqat bilan eshitishga odatlanishimiz, so'zlovchilarning so'zini oxirigacha eshitishga harkat qilishimiz, xodimlarning faolligini takrorlashimiz kerak.

Ko'pchilik oldida oddiy rahmat aytish yoki minnatdorchilik bildirish ba'zan moddiy taqdirlashdan ham afzal bo'lish mumkinligini unutmasligimiz kerak. Agar biror xodimni ishdagi nuqsonlari uchun jazolamoqchi bo'lsangiz, albatta adolat chegarasidan chiqmaslik va qo'pol muomala qilmaslik kerak.

So'z shaklini va jazo turini tanlashda jazolanuvchi xodimlarning yoshini jinsini va harakatlarini inobatga olish kerak. Tanqid-odamlarga katta va zarur ta'sir ko'rsatuvchi vositadir. Shuning uchun uni kerakli vaziyatda nihoyatda ehtiyyotkorlik bilan ishlatmoq kerak.

#### **Rahbarga qo'yiladigan talablar:**

- Ma'naviy yetuklik;
- Huquqiy yetuklik;
- Axloqiy yetuklik;
- Yuqori saviya va ong;
- Ma'rifatchilik;
- Madaniyatlichkeit;
- Xodimlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qodirlik;
- Topshirilgan ish uchun shaxsiy javobgarlikni his qilish, halollik;
- Shaxsiy manfaatlarni jamoa manfaatlariga bo'ysundirishga qodirlik;
- Kishilarga nisbatan mehribon va e'tiborli bo'lish;
- Tashabbus va ilg'orlikni qo'llab – quvvatlash qobiliyati;
- Prinsipiallik;
- Tanqidga chidamli bo'lish o'z – o'zini tadqiq qila bilish.

Boshqaruv tizimi deyilganda boshqaruv apparati va ular o‘rtasidagi bog‘lanish tushuniladi. Boshqaruv tizimining tarkibini bir-biri bilan bog‘langan teng huquqli birliklar va bo‘g‘inlar tashkil qiladi. Har bir bo‘linma o‘z vazifasiga ega bo‘ladi.

Boshqaradigan vazifalar doirasini, uning faoliyat chegaralarini, vakolatlari va javobgarligini belgilaydi.

Boshqaruv tizimi a’zolari rasmiy va norasmiy aloqalarda bo‘ladi. Rasmiy aloqalar bu eng avvalo rahbarlar bilan bo‘ysunuvchilar o‘rtasidagi aloqalardir (vertikal aloqalar). Ular rahbarlikning va bo‘ysinuvchilarning turiga qarab farq qiladi. Agar rahbarlik to‘laqonli bo‘lib quyi bo‘linmalar faoliyatiga doir barcha masalalarga daxldor va bu xildagi aloqa muntazam aloqa deb aytiladi. Rahbarlik cheklangan bo‘lsa, u holda aloqa funksional bo‘ladi. Bo‘linmalar o‘rtasida, vertikal aloqadan tashqari gorizontal aloqalar ham mavjud bo‘lib, ular muvofiqlashtirishni va hamkorlik qilish tarzidagi aloqalardir. Boshqaruv tizimida asosiy o‘rinni rasmiy aloqalar egallaydi. Lekin norasmiy aloqalar ham muhim, ahamiyatga egaligini unutmaslik kerak.

Bugungi kunda boshqaruvning ilmiy asoslangan va tajribada sinab ko‘rilgan qoidalariga tayanmay turib, mamlakat iqtisodiyotini, hamda korxonalarni samarali rivojlantirib va boshqarib bo‘lmaydi. Quyida korxonalarda rahbarlik qila olish va rahbarlik xislatlariga egaligini tahlili bo‘yicha turli vaziyatlar keltirilgan.

## 9.2. Tahlil uchun vaziyatlar

### 1-Holat

Majlisda ishchilardan biri rahbarning uni qanday qabul qilishi haqida ochiq norozilik bildiradi. <<Kabinetga kirasan, -dedi u, -salom o‘rniga bosh silkitish, o‘tirishni ham har doim taklif qilmaydi, insoniylik qani ?>>...

Bir odam so‘zga chiqgan kishini qo‘lladi, boshqasi esa: <<rahbar har doim o‘z fikrini bildirib, unga kelgan har bir hodimga yordam ko‘rsatadi, bu esa eng asosiysi>>- dedi.

Ularning qaysi biri haq ?

- Birinchi odam haq. Rahbar har doim o‘z qo‘li ostidagi kishilar kuzatuvida bo‘ladi. Bu uni o‘z harakatlarini qattiq nazorat qilishga majbur etadi, ayniqsa, har qanday ishlab chiqarish holatida bo‘lmasisin insonlarga hurmatda bo‘lishni talab etadi.

- Ikkinchi odam haq hissiyotlar esa ikkinchi o'rinda turadi. Ikkala ishchi ham adolatli mulohaza yuritishdi, etika, ahloq, rahbarning ichki madaniyati- bu ko'p narsani belgilaydi, lekin ishda shunday vaqtlar bo'ladiki, rahbar uchun salomlashishga ham qo'li tegmaydi, bundan tashqari rahbar va bo'ysinuvchi orasidagi o'zaro shaxsiy munosabatlар ham katta ahamiyatga ega. Bu yerda rahbar haq.

## **2-Holat**

Berilgan tavsifga asoslanib, mijoz turini aniqlash, << M >> konning bosh iqtisodchisi. U juda bosiq, vazmin, sustkash ayol. Kim bilandir gaplashganda tez-tez ko'zini chetga olib qochadi.

Hech qachon o'ziga etibor qaratishga harakat qilmaydi. Chunki bu uni uyaltiradi yani ishchilar bilan zo'rg'a tanishadi. Tinchlik va yolg'izlikni xush ko'radi.

Boshqalar nima bilan shug'ulanayotganini chetdan kuzatishni yaxshi ko'radi, lekin o'zi ularning ishiga qo'shilmaydi. Juda ishchan.Yaxshi kishilar bilan dilkash muomalada.

## **3-Holat**

Tavsiflar asosida odamning mijozini aniqlang. <<B>> qobiliyatli muhandis-iqtisodchi. Ko'pchilik uni juda qiziqqon va besaramjon deb hisoblaydi. <<B>> o'ziga qaratilgan har qanday tanqidga chiday bilmaydi, o'zini tutaolmaydi va tajovvuzkordek qaraydi.

O'zining kamchilagini ko'rsatishga jazm qilgan kishi bilan xohlagan paytda urishib ketishi mumkin. Bunday xulqni <<B>> hardoim unga qarshi zarba berolmaydigan kishiga qo'llanishi kuzatilgan. Shu bilan birvaqtda u bilan tortisha oladigan va uni o'z o'rniga qo'ya oladiganlar shuningdek u nimadan bo'lsa ham tobe bo'lganlar va uning shaxsiy xotirjamligi bilan bog'liq bo'lganlar <<B>> bosiq, g'amxo'r, vazmin, munosabat bildiradi. Shu bilan birga <<B>>juda ishchan, yangi ishga tez ko'nikuvchan, kam charchaydi va mashhurlik ahtaradi.

- |             |               |
|-------------|---------------|
| 1.Flegmatik | 3 .Sangvinik  |
| 2. Xolerik  | 4. Melanxolik |

## **4-Holat**

Bo‘lim boshlig‘i ish vaqtida koridorda ketayotgan edi. Bir burchakda yosh ishchilar chekib turib baland ovozda gaplashar edilar. Bolim boshlig‘i 10 minutdan keyin qaytayotib xuddi shu holatni ko‘rdi. Uning o‘rnida siz o‘zingizni qanday tutgan bo‘lar edingiz ?

1 Ularning oldiga kelib, nima uchun ish vaqtida uzoq vaqt gaplashib turganliklarini so‘rab, ish o‘rinlariga tarqalishlarini iltimos qilaredim.

2 Mamuriy chora ko‘rilishi kerak: Mehnat intizomini buzganligi uchun buyruq shaklida hayfsan elon qilardim.

3 Yoshlar tashkiloti kotibini chaqirib, ulardan chora ko‘rishini, mehnat intizomini buzganligi uchun buyruq shaklida hayfsan elon qilishini so‘rardim.

4 Biron xulosaga kelmasdan, hodimlar nima haqida gaplashayotgani to‘g’risida o‘ylab ko‘rib , yaqinroq borib, sekin muloqatga kirishardim. Balki ishlab chiqarishning munozaraga sabab bo‘lgan masalani hal qila olmayotgan bo‘lish mumkin.

## **5-Holat**

Iqtisodchi yarim kechgacha ishladi: zudlik bilan tahlil kerak edi. Iqtisodchi ertalab bo‘lim boshlig‘i tomonidan o‘tkazilayotgan majlisga kech keldi. Bo‘lim boshig‘ining jahli chiqib uning shahsiga yomon gap aytdi. Bu iqtisodchining o‘rnida siz o‘zingizni qanday tutar edingiz ?

1 Munosabatimizni yomonlashishiga olib keladigan javob berardim.

2 Uning aybi asossiz ekanligini tinch yo‘l bilan tushuntirishga harakat qilardim.

3 Uning gapiga etibor bermayman , keyinchalik o‘zi tushunadi.

## **6-Holat**

Yosh ishchi mehnat va ishlab chiqarish intizomini bir necha bor buzmoqda. Master u bilan suhbatlar o‘tkazdi. Jarima solishga ham to‘g’ri keldi. Yosh ishchi ishlaydigan birigadada 12 kishi bor, ulardan biri uning do‘sti har doim uni qo‘llaydi.

Kishi jamoa ishlari bilan uncha qiziqmaydi, ishdan so‘ng uyga ketishga shoshiladi. 5 kishi jamoatchilik topshiriqlarini bajarishadi, birigadir kasaba uyushmasi qo‘mitasi azosi. Yosh ishchi bilan yana <<favqulotda holat>> yuz berdi. Uning axloqini baholashda siz usta o‘rnida nima qilar edingiz ?

1 Brigada jamoasi yig’ilishida yosh hodimning harakatini muhokamaga qo‘yar edim.

2 Jamoa qatnashuvvisiz o‘zim qaror qabul qilar edim.

3 Yosh ishchining harakati muhokamasiga faqat birigada faollarini taklif qilar edim.

4 Boshqa javob yo‘q.

5 Korhonalarda menejerlar faoliyatini tashkil etish, menejerlarni shaxsiy va ishbilarmonlik sifatini baholash usullari.

## **7-Holat**

Boshqaruv xodimlari qanday asosiy toifalarga bo‘linadi ?

1.2- Kategoriyyaga: rahbarlar va muhandis- texnik xodimlar .

2.3- Kategoriyyaga: rahbarlar, mutaxasislar, xizmat ko‘rsatuvchi-yordamchi–texnik va xizmatchi kasb egalari.

3.4- Kategoriyyaga: yuqori darajadagi rahbar (boshliq o‘rnbosari) o‘rtta darajadagi rahbar (bo‘lim boshlig’i, bo‘lim va byuro boshliqlari.

## **8-Holat**

Kasaba uyushmasini yetakchisini tanlash kerak. 3 ta nomzod bor. Quyida ularning xarakteristikalarini keltirilgan . Kimni tanlardingiz ?

1. Birinchisi muloyim boshqalarni o‘z ketidan ergashtira oladigan, o‘z fikrida tura oladigan.

2. Insonlar bilan quruq munosabatda bo‘ladigan tabiatli mijozga ega ikkinchi nomzod, vazifalarni bajarishda tezroq ammo masalani aniq belgilab, uning bajarilishini tashkil eta oladi.

3. Uchinchi nomzod – jamoatchilik fikriga, tayanadigan o‘z ketidan ergashtira oladigan, ko‘ngilsizliklardan uzoq yuruvchi, ayniqsa ish jarayonida odamlarning o‘zaro munosabatlari bilan bog’liq hollarda.

## **9-Holat**

Ishlab chiqarishga kelgan yosh mutaxasislarga rahbarlarni (ustozlarni) tayinlovchi (belgilovchi ) to moyillari ustida o'ylab ko'ring. Sizning fikringizcha quyidagi berilgan uchta javobni qaysi biri haqiqatda haq, odilona (to'g'ri) ?

1. Mamuriy ishlab chiqarishga kelgan har bir yosh mutahasisiga zarur bo'lgan maxsus tayyorgarlikdan o'tgan va yoshlар tarbiyasi bilan shug'ullanishni istagan eng yaxshi ishlab chiqaruvchilardan raxbarlar biriktirib qo'yishi shart.

2. Ilg'or (yetakchi) ishlab chiqaruvchilardan yoshlар tarbiyasi bilan shug'ullanishni istaydiganlarni aniqlash (ko'rsatish) zarur va ularga maxsus tayyorgarlikdan o'tish uchun imkoniyatlar yaratib berish zarur Ayniqsa yosh ishchilarga biriktirilishi to'g'risidagi masalani esa rahbarlarning o'zлari hal etishlari lozim.

3. Ishga kirayotgan yosh ishchini ishlab chiqarishda rahbarning harakati bilan tanishtirish, unga yoshlар bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida to'liq axborot berish zarur. Bundan so'ng yosh mutaxasisga o'zi rahbarni tanlashni taklif qilish kerak.

## **10-Holat**

Rahbar mehnatiga bir qator xususiyatlar xosdir. Ulardan asosiysi shundan iboratki , rahbar o'zi uchun mehnat qilmaydi, uning faoliyati u rahbarlik qiladigan ishchilar jamoasi mavjudligi bilan manoga egadir.

Bu boshqaruv muhitida band bo'lgan rahbar va mutaxasislardan ishchanlik qobiliyatini muntazam o'sishini berilgan ishga javobgarlikni , mehnatni to'g'ri tashkil qilishni va undan samarali foydalanishni talab etadi.

Zamonaviy rahbar o'zida omilkorlikni (chuqur bilimga asoslangan) ishbilormonlikni, tashabbuslilik intizomlikni va ishga ijodiy yondashuvni uzviy ravishda uyg'unlashtirishi shart.

Rahbar ega bo'lishi kerak bo'lgan xususiyatlar to'grisidagi savol tamomila yechilmagan bahslashuvlarga olib kelyapti, zero, boshqaruvchining ishi o'ziga xos xususiyatlarni talab qiladi. Bu sifatlarni o'lhash, ularning tarkibini aniqlash va boshqaruvning turli daraja va obyektlarining o'zaro bog'lanishiga tegishlidir.

Ta'sirni kuzatish qiyin, xususan, rahbarning u yoki bu xususiyatlarning miqdoriy aloqasini, uning jamoadagi

munosabatlarida, ishning iqtisodiy ko'rsatgichlarida rivojlanish darajasini ko'rsatish undan ham qiyin, lekin imkonи bor.

Mezonlarning har biri maxsus ishlab chiqarilgan baholash shkalasi bo'yicha miqdoriy ravishda baholanadi. Ekspert so'rashga va ekspert natijalari asosida rahbarga zarur va yetarli bo'lган xususiyatlar ro'yxati tuziladi.

Boshqaruв bo'yicha adabiyot da nashr qilingan izlanishlar asosida rahbar va mutaxasislar kerakli bo'lган xususiyatlarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin . Rahbar qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerak .

#### 1.Uddaburonlik (tashabbuskorlik):

- tavakkal qila bilish;
- berilgan ishga shaxsiy javobgarlik hissi;
- insonlarga g'amxo'rlik qilish ;
- bir fikrda turish ;
- tanqidga qulоq sola bilish , o'z ishiga (xatti -harakatiga) tanqidiy qarash.

#### 2. Intizom va mehnatga munosabat:

- mehnatsevarlik:
- intizom.

3. Kasb egasi ekanligi omilkorlik (o'z kasbini chuqr egallaganligi, chuqr bilim egasi) va bilim darajasi:

- mamuriy ;
- omilkorlik (chuqr bilimga ega bo'lish);
- (eruditsiya) bir yoki birnecha sohada keng va chuqr malumotga ega bo'lish .

#### 4. Tashkiliy va ma'muriy qobiliyat:

- ishbilarmonlik;
- tashabbuskorlik;
- ish haqidagi fikrlarni qisqa va aniq bayon qila olish;
- aniq bir maqsadga qaratilganlik;
- ish bo'yicha bo'ladigan xatlarni , buyruqlarni, farmoish va boshqalarni yozabilish;
- o'z vaqtida qaror qabul qila olish ;
- qarorning bajarilishi bo'yicha nazorat o'rnatish qobiliyati;
- murakkab sharoitlarda o'z yo'nalishini tezda aniqlashni bilish;
- yangilikdan qo'rqmaslik ;

- turli tashkilot rahbarlari bilan ishlashni bilish.

5. Jamoa muhutiga mos kelish :

- mustaxkam birlashgan jamoani yarata olish;

- buysunuvchilar bilan ishlay olish :

- nizoli xolatlarni bartaraf qilish (yo‘lga qo‘yish);

- qatiyatilik :

- jaxli tezlik:

- odamlar bilan kelishishlik;

- vijdonlilik ;

- kamtarlik;

- tashqi ko‘rinishi (ozodalik , pokizalik ,tozalik);

6. Boshqa xususiyatlari:

- sog’lik-salomatlilik;

- ish muddati;

- Yoshi;

- oilaviy holati.

Albatta , rahbar va mutaxassis bu hamma xususiyatlarga ega bo‘la –olmaydi. Ekspert so‘rovlari va ekspert natijalari yordamida rahbar yoki mutaxassisiga kerakli va yetarli bo‘lgan xususiyatlarining ro‘yxatini yozamiz .

## 11-Holat.

Boshqaruvning ma’zmuni jarayon sifatida o‘zining faoliyati turlarini ifodalaydigan vazifalarida ochiladi .Ular yordamida boshqaruv subyekti boshqariluv obektiga ta’sir qiladi .

Tashkiliy texnik rejada ishlab chiqarishni boshqarish belgilariga ko‘ra quyidagi vazifalariga bo‘linishi mumkin : boshqaruv jarayoning mazmuni, ishlab chiqarish xo‘jalik faoliyati turlariga aloqadorlik (mansublik ). Sanab o‘tilgan belgilar bo‘yicha hamma yirik vazifalar bir necha qismlarga bo‘linishi mumkin. Bunda birgina korxona ichidagi boshqaruv mehnatining bo‘linishi ko‘p miqdorli omillariga ta’sir qiladi; Shu jumladan keng ko‘lamlilik va boshqalar. Buning asosida boshqaruv mehnatining vazifa egaligida bo‘linishi yuzaga keladi. Shunday ekan, mehnatning vazifaga bo‘linishi so‘zlari keng manoda o‘z ichiga ishlab chiqarish xo‘jalik faoliyati muhuti bo‘yicha boshqaruv jarayonining alohida boshqaruv ishi va operatsiyalar turlariga bo‘linishini oladi.

Boshqaruv bo‘yicha shunday mehnat bo‘linmasini ta’minlash muhumki, unda hamma vazifalari o‘zaro aloqadorlikda va muvofiqlashgan holda bajarilishi kerak. Bu esa alohida boshqaruv vazifalarining turli boshqaruvchi tizimlarning maqsadga muovfiq qo‘silib ketishini va bir- biriga biriktirilishini ta’minlashda yordam beradi . Bu o‘z navbatida , boshqaruv apparatida ishlaydiganlarning huquq va burchlarini aniqroq belgilab beradi , boshqaruv tizimini mukammallashtiradi .

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Alimxodjayev S.R. Konchilikda ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish. O‘quv qo‘llanma. – T.: ToshDTU, 2013.
2. Alimxodjayev S.R., Ibragimova S.A. Menejment asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: ToshDTU, 2007.
3. Ibragimova S.A., Alimxodjayev S.R. Ishlab chiqarish menejmenti. O‘quv qo‘llanma.- T.: ToshDTU, 2007.
4. Ibragimova S.A., Urmanova D.T. va boshqalar. Innovatsion menejment. O‘quv qo‘llanma.- T.: ToshDTU, 2010.
5. Murathanova N.M. Маркетинг сборник задач и ситуаций-М: Akademiya, 2004.
6. Nurimbetov P. Menejment. Amaliy mashqlar.-T.: “Musiqa” Nashriyoti, 2007.

## MUNDARIJA

|   |    |
|---|----|
| Kirish.....   | 3  |
| <b>1.</b> Konchilik sanoatining asosiy ishlab chiqarish fondlari.....   | 4  |
| <b>1.1.</b> Asosiy ishlab chiqarish fondlarining strukturasi, hisobga olish va baholash .....                                       | 4  |
| <b>1.2.</b> Amortizatsiya ajratmarini aniqlash bo'yicha masalalar.<br>Misol va masallarni echish usuli .....                        | 7  |
| <b>1.3.</b> Asosiy fondlardan foydalanish ko'rsatkichlari .....   | 15 |
| <b>2.</b> Konchilik sanoatining aylanma fondlari.....   | 20 |
| <b>2.1.</b> Aylanma fondlar, ularning tarkibi va tuzilishi .....  | 20 |
| <b>2.2.</b> Aylanma mablag'lardan foydalanish ko'rsatkichlari va ularning aylanishini tezlashtirish yo'llari.....                   | 21 |
| <b>3.</b> Korxonalarни modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishning samaradorligini.....                                   | 33 |
| <b>3.1.</b> Asosiy fondlarni modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishni samaradorligini aniqlashning nazariy asoslari..... | 33 |
| <b>3.2.</b> Asosiy fondlarni modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirish bo'yicha misol va masalalar .....                    | 35 |
| <b>4.</b> Korxonalarda ish haqini rejalashtirish .....  | 38 |
| <b>4.1.</b> Ish xaqini aniqlash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar.....  | 38 |
| <b>4.2.</b> Namunaviy masalalar yechimi bilan va yechish uchun masalalar.....   | 39 |
| <b>5.</b> Ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi.....  | 41 |
| <b>5.1.</b> Mahsulot tannarxini aniqlash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar .....  | 41 |
| <b>6.</b> Korxona hodimlari soni, ish tartibi va mehnat unumdarligi .....   | 50 |
| <b>6.1.</b> Ishchilar soni va mehnat unumdarligini aniqlash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar.....                                      | 50 |
| <b>6.2.</b> Namunaviy misollar yechimi bilan yechish uchun masalalar.....   | 52 |
| <b>7.</b> Korxonalarning foya va rentabelligi .....   | 57 |
| <b>7.1.</b> Foya va rentabelliikni hisoblash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar .....  | 57 |
| <b>7.2.</b> Namunaviy masalalar yechimi bilan va yechish uchun masalalr .....   | 59 |
| <b>7.3.</b> Korxonalarни ishlab chiqarish rentabelligi.....   | 61 |
| <b>8.</b> Korxona faoliyatini rejalashtirish.....   | 65 |
| <b>8.1.</b> Korxona faoliyati rejasini tuzish.....  | 65 |
| <b>8.2.</b> Firma faoliyatini tahlili.....  | 68 |
| <b>8.3.</b> Korxonani tashkiliy tuzilishini tahlili.....  | 69 |
| <b>9.</b> Korxonalar rahbarlari faoliyatini baxolash.....   | 71 |
| <b>9.1.</b> Raxbarning xislatlarini belgilovchi me'zonlar.....  | 71 |
| <b>9.2.</b> Taxlil uchun vaziyatlar.....  | 72 |
| Foydalanaligan adabiyotlar  | 80 |
| Mundarija   | 81 |

Muharrir : Sidikova K.A.  
Musahhih: Adilhodjaeva Sh.M.